**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
JADIDSHUNOSLIK ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

RUSTAM SHARIPOV

BEHBUDIY DAHOSI

**(Mahmudxo‘ja Behbudiyning
150 yilligiga bag‘ishlanadi)**

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133
KBK: 83.3 (5 Uzb)
Sh - 54

Rustam Sharipov. Behbudiy dahosi. – Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025. – 86 bet.

Mazkur kitob Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi va rahnamosi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, buyuk alloma tomonidan ilgari surilgan siyosiy, huquqiy va ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ushbu tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida olib borilgan ilmiy loyiha doirasida Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan amalga oshirildi va nashr etildi.

Mas’ul muharrir:

Durbek SAYFULLAYEV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti prorektori,
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Xayrulla HAMIDOV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Hilola SHARIPOVA
Toshkent davlat yuridik universitetining katta o‘qituvchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 6-son qarori
bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8696-4-8

© Rustam Sharipov, 2025.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING Q A R O R I

TURKISTON JADIDLIK HARAKATINING ASOSCHISI, ATOQLI ADIB VA JAMOAT ARBOBI, NOSHIR VA PEDAGOG MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 150 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo‘ldi. Mohir publitsist sifatida o‘z davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, «Samarqand» gazetasi hamda «Oyina» jurnaliga asos soldi. 1914-yilda «Turon» teatrida sahnalashtirilgan «Padarkush» pesasi orqali o‘lkamizda teatr san’atining tamal toshini qo‘ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo‘lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo‘ldi.

Mustaqillik davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning muazzam haykali o‘rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e’tirof etildi. Iste’dodli dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta’sis qilingani shu yo‘ldagi yangi amaliy qadam bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2025-yilda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3.Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) ikki hafta muddatda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin:

mutafakkir adibning «Tanlangan asarlar» to‘plami, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish;

Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan «Mahmudxo‘ja Behbudiy» kinoseriali va «Xalq yuragi» badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;

Badiiy akademiyaning Markaziy ko‘rgazmalar zalida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidlik harakati namoyandalarining faoliyatiga oid tasviriy san’at asarlari ko‘rgazmasini uyushtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, ijod maktablari o‘quvchilari, «Temurbeklar maktablari» kursantlari hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida «Mahmudxo‘ja Behbudiy saboqlari» mavzusida insholar tanlovini o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash;

barcha bo‘g‘indagi ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilish;

zamonaviy raqamli va targ‘ibot texnologiyalari asosida Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarini yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirish;

2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida «Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish;

2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasini o‘tkazish;

Samarqand shahridagi Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi hududini obodonlashtirish hamda muzey ekspozitsiyasini boyitish;

Qarshi shahridagi ko‘chalardan biriga Mahmudxo‘ja Behbudiy nomini berish hamda unga bag‘ishlangan yodgorlik lavhasini o‘rnatish;

Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo‘ljallangan audiovizual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni e’lon qilish.

Tashkiliy qo‘mitaga Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada uyushtirish, mazkur qarorga asosan belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar tashkilotchilarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, ularning budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 27-dekabr,
PQ-462-son

SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

O‘zbeklarga xos bo‘lgan ajoyib bir xususiyat bor. Ma’lum bir davriy bosqich so‘ngida, u xafta, oy yoki yil oxiri bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, do‘ppisini yerga qo‘yib, sarhisob qilishga tushib ketadi. O‘tgan vaqt o‘zi va oila a’zolariga nima olib keldi? Umri mazmunli o‘tdimi? Xonadonidan qut-baraka arimadimi? Nevaralari nechtaga ortdi?.. Albatta, bu oddiy qiziqish emas. Buning zamirida teran mushohada, voqelikdan xolisona xulosalar chiqarish, qolaversa, kelgusidagi rejalarni belgilab olish zarurati yotadi.

Bugun, XXI asrning ilk choragi oxirlab borayotgan bir vaqtda ham o‘tmishdan saboq chiqarish jarayoni davom etmoqda. Ayniqsa, tarix zirvasiga murakkab siyosiy jarayonlar va tub burilishilar davri bo‘lib kirgan XX asr kelajak avlodlar uchun saboq bo‘ladigan ne-ne voqealarni boshidan kechirmadi. Nihoyat, o‘tgan yuzyillikning to‘qsoninchi yillari boshidagina millatimizning muqaddas orzusi ushaldi – o‘zbek xalqi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Yangi asr bo‘sag‘asida dunyo xaritasida yangi mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. Ota-bobolarimiz qalbida uzoq yillar davomida ardoq bo‘lib kelgan orzular ro‘yobga chiqdi. Tarix zirvasida o‘ttiz uch yil juda qisqa muddat bo‘lishiga qaramay, shu davr ichida mamlakatimiz milliy davlatchiligimiz asoslarini qurishda, iqtisod, huquq, madaniyat, fan va texnika sohalarida salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritib, jahon hamjamiyatidan o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Uzoq moziyda O‘rta Osiyo hududlarida Turkiston, Xorazm, Sug‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona kabi madaniyati yuksak va qudratli davlatlar mavjud bo‘lgani, ozodlik yo‘lida jonini fido qilgan Shiroq, To‘maris, Spitamen, Muqanna kabi qahramonlarning jasorati bugungi kun yoshlarida o‘z Vatani uchun iftixor tuyg‘usini shakllantirib, fidoyilik hissini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz tomonidan bunyod etilgan, poytaxti Samarqand bo‘lib, hududlari Chindan to O‘rta yer dengizi sohillariga qadar uzangan qudratli davlatni yoki Mirzo Ulug‘bek hukmronlik qilgan davrlarni, Bobur Mirzoning

bunyodkorlik faoliyatlarini eslaylik. Bunday buyuk ajdodlarimiz hukmronlik qilgan zamonlarda hunarmandchilik, ilm-fan va san’at gullab-yashnagan, o‘zbekning dovrug‘i uzoq-uzoqlarga yoyilgan. Abu Ali ibn Sino, Farobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Bahoviddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, at-Termiziy, al-Farg‘oniy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mir Alisher Navoiy kabi tabarruk zotlarning nomlari hamisha o‘zbek xalqi uchun iftixor bulog‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Harqanday sharoitda ham o‘zbek xalqi sha’nini baland ko‘targuvchi yorqin shaxslar mavjud bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yaqin o‘tmishimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, millatning o‘zligini anglashga xizmat qilib, xalq baxti yo‘lida aziz jonlarini qurbon qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Fayzulla Xo‘jaev, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab insonlar siymosi har lahza qalblarimizni yoritib, tarixdan saboq olishga undaydi.

Yuqorida biz o‘tmishimizning ayrim nuqtalariga to‘xtalib o‘tdik, xolos. Ammo shuning o‘zi ham xalqimiz tarixi naqadar boy va salmoqli ekanini ko‘rsatib turibdi. O‘lkamizning ana shu buyuk o‘tmishi ajdodlarimiz ruhi poklari va ular qoldirgan boy ilmiy, ma’naviy meros bizga katta ishonch, intilish, qat’iyat va kuch-quvvat baxsh etib, kelajagi buyuk huquqiy davlat barpo etishdek sharafli ishda madad bo‘lishiga ishonchimiz komil.

Hukmingizga xavola etilayotgan mazkur kitob XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkiston hududlarida vujudga kelib, millatimizning ijtimoiy va siyosiy tafakkuri rivojiga katta xissa qo‘shgan jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, shu kunlarda tavalludining 150 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanayotgan buyuk siymo Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan siyosiy, huquqiy va ma’rifiy g‘oyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif o‘zlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bildiradigan kitobxonlarga avvaldan o‘zining samimiy minnatdorchiligini izhor etadi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY

(1875-1919)



Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e’lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-23-yillarda o‘zi muharrirlik qilgan «Mehnatkashlar tovushi» (1922), «Zarafshon» (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida 70-yillardan bugungi kungacha e’lon qilinib kelayotgan Solih Qosimov, Ahmad Aliev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiev va bugungi yosh tadqiqotchilar Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova ishlarining barchasida mana shu Hoji Muin ma’lumotlari asos qilib olinadi.

Uning keltirishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning

avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785) Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug‘ullanib kelgan Behbud-xo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog‘ida o‘sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog‘asi Odildan o‘rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qila boshlaydi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma’lumotlar nihoyatda kam. U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An’anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G.Andreev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma’lum. Xullas, an’anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari - qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. «1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Kohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi», - yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko‘rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.

25 kunga cho‘zilgan bu safar haqida Behbudiy so‘ngroq shunday ma’lumot bergan edi: «1325-sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijni Novgo‘rud borib edim».

Teatr kerak

Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin.

Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko‘rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma’rifat yo‘liga kirib, o‘z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi. 1916-yildagi Turkiston general gubernatori N.R.Kuropatkinning o‘z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo‘lib ketgan «Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik», degan so‘zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg‘unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. «Kimiki sahnada ko‘rsang oni jasorati bu», deb yozgan edi shoir Tavallo. Bu bejiz emas. Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi» degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: «Turkistonda bekor odam yo‘kki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa», deb yozgan edi.

«Padarkush» - o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o‘ylamagan boyning Toshmurod ismli o‘g‘li bor. O‘g‘li o‘qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg‘onib, ularni sezib qoladi. Boyni o‘ldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi. «Xalq nihoyat ko‘p kelib, belat yetmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi», deb yozadi mahalliy matbuot.

Yana o‘sha yerda o‘qiymiz: «Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g‘ayrati ilan sotilib tamom bo‘lub edi. Ba’zi kishilar belatlarini ikki bahog‘a foidasi ilan boshqag‘a sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonag‘a hujum qilgan. Ammo belat yo‘q. Uch so‘m berib, tikka turmoqg‘a ham rozi, yana yer yo‘q…»

Spektakl o‘z maishatiga o‘ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta’sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o‘g‘li o‘ynagan edi. «Boyni hamboza (xurrak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi», yozadi taqrizchi. «Domla (Mardonqul Shomahmud o‘g‘li) va ziyoli (Mirza No‘mon Mulla Fozil mufti o‘g‘li)ni nasihati xaloyiqni ko‘nglig‘a ta’sir etardi, hatto va’zu pandga yig‘laganlar bor edi», - o‘qiymiz taqrizda. Ayniqsa, boyning o‘z o‘g‘li yordamida o‘ldirilib, mol-dunyosining fahshu ishrat uchun olib ketilishi voqealari kishilarni larzaga solgan. «Bu faje’ va alamlik manzarani parda yopar. Xalqg‘a haddan ziyoda ta’sir. Ba’zi kishilar fojiadan ko‘z yumarlar…»

Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo‘lgan. Taqrizdagi «Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto 20 yildan beri teatr ma’muriyatindagi odamlar ta’rif qilurdi… Aholidagi olqish ibratxonani gumbirlatur…» degan jumlalar shunga ishora qiladi.

Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo‘yildi. Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyati hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun», deb yozadi.

«Turon» truppasi 1914-16-yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqdi. «Padarkush» Turkistonni junbishga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o‘z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta’siri haqida qaydlar ko‘p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pesasi ta’sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim», degan e’tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda «Turon»ning qator spektakllarini ko‘rgan A.N.Samoylovich yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi… Yangi adabiyotning markazi - Samarqand… Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo‘ja Behbudiydir».

Dramaning birgina o‘zbek emas, tatar, ozarboyjon teatrchiligiga ham ta’siri haqida gapirish mumkin. Turkistonda shu yillari Zaki Boyazidskiy, Aliasqar Asqarov, Sidqiy Ruhillo, Ilyosbek Oshqozor-skiy kabi ko‘plab qardosh rejissyorlar faoliyat ko‘rsatganini xotirga olaylik.

Behbudiy va matbuot

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20-avgustidan u «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi… «Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi… Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi… Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o‘qildi», deb yozgan edi Ziyo Said.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha davr vaqtli matbuotida «Behbudiya kutubxonasi» haqidagi xabarlarga tez-tez duch kelasiz.

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakat-lariga sayohatga otlanadi.

Muallif sayohati arafasidagi kayfiyatni shunday ifodalaydi: «7 sanadan beri ikki daf’a Buxoro va bir daf’a Farg‘onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo‘q edi. Azbaski, tiriklik kasalig‘a mubtalolik, ro‘zg‘or qaydig‘a giriftorlik sayohat ne’matidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar ta-rafdan aloyiqi ro‘zg‘or, tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq «Samarqand» jaridasi va hozirgi «Oyna» idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A’zou havoslarg‘a kasolat paydo bo‘ldi. Singir (asab)… g‘ayri muntazam ishlaydo‘r. Atibbo istirohat va sayohatg‘a mashvarat berarlar. Tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar, istamaz».

Shunga qaramasdan, safarga chiqmasa, bo‘lmaydi. Avvalo, «Kutubxonai Behbudiya» uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rusiya va xorijiyaning manzaralari, imoratlari kishilarning suratlari, turli-tuman qolip (klishe)lar va yana boshqa juda ko‘p narsalar kerak. Xullas, bormasa bo‘lmaydi. Marshrut: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga — Istanbulga qaytib, temir yo‘l bilan Bulg‘oriston, Avstriya va Berlin orqali Rusiyaga, undan Turkistonga kelish. Muddati ikki oy. Birinchi iyunga qolmay yo‘lga tushish kerak. Behbudiy Peterburgda bo‘ladigan Milliy majlis maslahatiga taklif qilingan edi. Savollarga javobini yozib yuboradi, uzrini aytadi. Xullas, 29-mayda yo‘lga tushadi. Poezdga o‘tirib Bayramali orqali Ashxobodga o‘tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2-iyunda Mineralnie Vodi-Kislovodsk-Pyatigorsk, Jeleznovodsk-Rostov-Odessani kezib, 8-iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Adirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21-iyunda suv yo‘li bilan Quddusga yo‘l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi…

Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, Behbudiy ularni o‘z jurnali «Oyna»ning 1914-yil sonlarida mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi (hozircha 18 sonda uchratdik).

«Sayohat xotiralari»ning birinchi qismi jurnalning 14-iyun 34-sonidan chop etilgan. Muallif unga «31-may, Bahri Hazar, Mahmudxo‘ja» deb imzo chekadi. Raqamlash va sana hamda yozilgan joyini ko‘rsatishga birinchi olti sonidagana rioya qilingan. Bu «Xotiralar» ham ma’rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyat muhim. Ular adabiyotimizdagi an’anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidaga o‘ziga xos namunasidir. Muallif bu memuarlarda yo‘l taassurotlariga, mashhur yoxud oddiy kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o‘rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma’lumotlar to‘playdi, turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalator («osonsur») gacha uning e’tiboridan chetda

qolmaydi. Ayniqsa, din, e’tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasulullоh poyqadami tekkan qutlug‘ dargohlar, xususan, Quddus sharifdagi mashhur al-Masjidul-Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to‘ladi. Sajdaga bosh qo‘yarkan, dilining tub-tubidan Olloh ishtiyoqi qalqib chiqadi. «Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlari, na ashqrez noz-niyozlar… Nuroniy, fusunkor, porloq moziykim, aningasari qudsiyat samari ming bu qadar sana so‘ngra bizni mahviyat darajasinda kelturar», - deb yozadi u.

Muallif Ollohga nido qiladi: «Iloho, u aziz va faol bandalaring hurmatig‘a bizg‘a basirat ber. Eshitar quloq, anglar aql ber… Ey Ollohi azimushshon. Bu magar sening g‘azabingmidur?! Avf et, biz insonlarni. Hidoyat et. Yer yuzinda sulh va silohi umumiy ato ayla. Insonlarg‘a insoniyat ber. Zolimlarni qahr et, mahv bo‘lsun zulm. Yashasun adolat va haqqoniyat, omin…»

«Oz‘AS» haftaligi Ingeborg Baldaufning mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi munosabati bilan yozilgan «Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda» (1993, № 21) maqolasini e’lon qildi. Muallif unda Behbudiy kuzatishlarining o‘ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o‘rtagan eng katta dard - erk va ma’rifat ekanligini aytgan. Darhaqiqat, «Xotiralar»dagi ma’rifiy ruh, iztirob to‘la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi sizni befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuyg‘usi ifodasi uni bugun siz bilan bizga haddan tashqari yaqin qilib qo‘yadi. U Quddus sharifdagi Hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. «Do‘konig‘a bir oz o‘lturdik, - yozadi Behbudiy, - mamlakatdan so‘radi. Qo‘lig‘a bir necha nusxa «Oyna» va «Turkiston xaritasini» berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko‘rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o‘pib, ko‘zig‘a surtdi. («Hubbul-vatani minal-imon».) Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratga ma’lum bo‘lur. Haqiqatan vatan mu-qaddasdur. Qadrini bilmoq kerak». «Oyna» jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga,

dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi — nishona sonidayoq, «Ikki emas, to‘rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur» deb nomlangan. «Tushundigim zamon ko‘nglum yonar, yig‘lamoq istarman, ko‘zyoshlarim kelmaydur», deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Yevropadan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi. (1915-yil, 7-son.) «S.A.» imzoli kishining «Har millat o‘z tili ila faxr etar» (1914-yil, 35-son) maqolasida boshqa tillarni o‘rganish qatorida har bir millat o‘z tilining muhofazasi bilan shug‘ullanishi shart, degan fikr juda ko‘p dalillar bilan isbot qilib beriladi. «Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur», deb yozadi muallif va «Bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur», deb xulosa chiqaradi. Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning «Til masalasi» maqolasida tillarning o‘zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug‘ ma’rifatchi tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham «o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini» dalil qilib ko‘rsatadi va masalaning boshqa jihatiga - yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e’tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so‘ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o‘rtaga qo‘ydi. «Tanqid saralamoqdur» (1914-yil, 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag‘ishlangan jildiy maqolalaridan biri.

Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa «sartlar» deb nom berdilar. N.Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlanganligi hammaga ma’lum. Bu so‘z, aslida turli vaqtda turli etnik qatlamga, goho sotsial qatlamga nisbatan aytilgan. 10-yillarda bu so‘z atrofida yana bahs ketdi. Chunonchi, Buxoro amirining ruschaga tarjimoni Bahrombek 1911-yilda «Sho‘ro» jurnaliga «Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma’lum bo‘lib turub… na uchun sart ataydurlar?» degan savol bilan mu-rojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning «Sart so‘zi majhuldur» degan javobi bosiladi. 24-sonida esa samarqandlik Baqoxo‘ja «Sart so‘zi aslsizdur» degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosilganday bo‘ladi. Biroq oradan 2-3 yil o‘tib, «Sadoyi Farg‘ona»ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining «Sart so‘zi ma’lumdir» degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, «ma’lum» deb da’vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy «Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi» degan maqola yozib, «Sadoyi Farg‘ona»ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so‘ng muallif maqolani o‘z jurnalida (1914-yil, 39-son) berishga majbur bo‘ladi. Jurnalda Behbudiyning «Sart so‘zi majhuddur» maqolasi ham qayta bosilgan. Maqola hajman salmoqli, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib ushbu kalimaning xalqona etimologiyasidan tortib, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg‘ozi Bahodirxonning asarlarigacha, N.Ostroumov kitobidan D.G. Logofetning «Buxoro xonligi»yu L.M.Budagov lug‘at-larigacha, I.I.Geyer «Sayohatnoma»laridan A.Vamberi «Kundalik-lar»igacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha bo‘lgan namoyandalarining bu sohadagi kuzatishlarini to‘plab, xulosalaydi.

Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari singari bu ham o‘tmishga kamoli ehtirom va e’tiqod bilan yozilgan. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «qul» - «marquq» derlar (1914-yil 23-son, 340-bet), deb yozadi u. Bu so‘z Ch.Aytmatov tufayli «manqurt» shakli bilan yangi umrini boshladi. Behbudiy, millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy

masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e’tibor berdi. «Hayot va mamot masalalari qadar muhim bo‘lgan necha masalalar ko‘zimiz oldig‘a turgan holda alarni ehmol etub, faqat sart so‘zi ila shug‘ullanib, fursatlarni bo‘shqa o‘tkarmoqlik yaxshi emas», deb yozadi u. «Lekin,- davom etadi, - yovrupolilar qoshida milliyat masalasi muhim va muqaddas tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan «sart» haqida goh-goh bahs etub, milliyatimizni xotirlab turganda, zarar ko‘rmasmiz».

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste’dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Va-tan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Ba’zilar uning maqolalari adadini 200, boshqalar 500 deb belgilaydilar. Uning barcha yozganlari hisoblab chiqilmagan, hatto aniqlanmaganlari qancha. Mualliflar o‘zlarining ismi-shariflarini o‘z gazeta-jurnallarida ko‘pda qo‘yavermaganlar. Har qanday holda ham Behbudiy g‘oyat sermahsul qalamkash edi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan uning 1906-yil 10-oktabrda «Xurshid» gazetasida (6-son) bosilgan «Xayrul-umuri avsatuho» (Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur) maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo‘lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o‘sha 1906-yildayoq sotsialistik ta’limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog‘lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan Rusiya musulmonlari ittifoqi («Ittifoqi muslimin»)ni, qarashlarida ma’lum yaqinlik bo‘lgan Kadetlar partiyasini qo‘llaydi. Uning bu xususdagi fikrlari ustozi Ismoilbek Gasprinskiyning «Mazhabi ishtirokiyun»ni qattiq tanqid qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» ri-solasi va «Dorur-rohat musulmonlari» romanidagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham o‘z ustozi kabi sotsializmni zo‘ra-vonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfa-

atdorligida, millat ravnakida taraqqiyotning buyuk omilini ko‘rdi. Xuddi shu e’tiqod uni Turkistonning mus-taqilligi uchun kurashga yetakladi.

Behbudiy darsliklari

Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. O‘zSE dagi «Behbudiy» maqolasi muallifi marhum S. Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Kitobatul-atfol» («Bolalar maktublari»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi»). Shulardan bittasiga — «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy»ga to‘xtaymiz. Asarning to‘la nomi «Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya». 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu «qadim fan»ga taalluqli «turkiy, arabiy, forsiy, rusiy lug‘atlarga tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid kutub va rasoili jug‘rofiya, hay’ati riyoziy, tarixiy, tabiiy»lardan va yana juda ko‘p turli-tuman ma’lumot-manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi (1-bet).

«Jug‘rofiya degan so‘z yunoniy, lug‘ati arabiyg‘a ta’rifi ard ma’nosig‘a, ya’ni yer va tufroqni bayon qilaturg‘on ilmni aytilur»,- izoh beradi muallif. So‘ng Behbudiy uning turlariga to‘xtaydi.

Kitobning dastlabki sahifalarida jug‘rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, asarlari keltiriladi. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850-1904) 6 jildlik mashhur «Qomusul-a’lom» va Ismoilbek Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan.

Boblarning biri: «Jug‘rofiyani o‘qumoq musulmonlarg‘a lo-zimdur» deb atalgan. Unda Yer haqidagi xurofiy tushunchalar tanqid qilingan. Chunonchi: «Ammo hozirgi jug‘rofiya ilmi, tajriba va ro‘yati boshlarindan bilinadurki, Yer kurraviy — yumaloq, ostig‘a ho‘kuz,

balig‘ yo‘q, atrofig‘a devori yo‘q va Yer aylanadur, havog‘a muallaq turadur. Bizni nazarimizg‘a sokin va ammo haqiqatda aylanadur» (14-bet).

«Eski va yangi donishmandlar» faslida qadim Batlimus (Ptolomey)dan qolgan geotsentrizm va unga qarama-qarshi gelio-tsentrizm haqida gap ketadi. Ilmi hay’atdagi «sab’ayi sayyor», «to‘qquz osmon» iboralari izohlanadi.

«Ahli hay’ati jadida, ya’ni yangi hukamolar aytadurki, Oftob dunyoni o‘rtasig‘a xalq bo‘lubdurki, Atoruddan boshlab qadi-ma besh sayyora va yangi topilgan ikki sayyora va ko‘z ila ko‘rilmay, yangidan durbin ila topilgan uch yuzg‘a yaqin sayyoralar va bularni ichig‘a biz ustida turg‘on Yerimiz Oftobni atrofig‘a har biri o‘zig‘a tegishli doira - aylanasig‘a aylanib yuradurlar. Yerimiz Oftobg‘a nisbatan uchlanchi sayyora - yurguvchi yulduzdur! Yurguvchi yulduzlarni hammasi benur va yorug‘likni oftobdan oladur» (22-bet) o‘qiymiz kitobda.

Muallif, shu tariqa, juda sodda qilib osmon jismlarining joylashish va harakatini tushuntirib beradi. Bularning ayrimlari Qur’on va Hadis xabariga rost kelmasligini ham aytadi. Shunga qaramasdan, «Yangi hukamolar osmondagi yulduzlarni ahvolidin eskilardin ko‘ra yaxshiroq ogoh bo‘lubturlar»,- deb yozadi. Chunonchi, Oy, Mirrix (Mars) haqidagi zamondoshlari ma’lumotlarini jamlab va ularning qadim hukamoga nasib etmagan aniq va puxta zamonaviy asboblar yordamida to‘planganini ta’kidlab, «…hukm qiladurlarki, albatta, Mirrixda odam bor va ilm bizlardan ziyodadur!» degan fikrni ilgari suradi. «Martabai insoniyatg‘a noil o‘lmakg‘a, har bir insonni jamiyati insoniyatg‘a va dini ilohiyag‘a ehtiyoji bor, - yozadi muallif. - Ushbu sababdandurki, insonlar komil insonlarni qo‘l ostig‘a jamiyati bashariyani barpo qiladurlar. Olloh taolo anbiyo vositasi ila qonuni shariat, xavfu qalbu rijo yuboribdurki, ango doxil va solik bo‘lmoq lozim va vojibdur. Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va madaniyatdan emas, hayvoniylikdur. Dinsiz mutamaddun (madaniyatli) bo‘lmoq muhol (qiyin)dur. Jamiyati bashariyani barqaror turmoqig‘a din, shar’ (shariat), nizom va bularni boshqaruvchilarga birinchi sababdur. Bas, jamiyat ilm, insof va hunar

sabablari ila uch xil bo‘linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat atalgan. Va bularni(ng) har birini yana bir necha sinfg‘a taqsim qilmoq odamlarni ahvolig‘a qarab mumkin bo‘ladur».

Ma’rifatdan siyosatga

Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga bo‘ladi:

1. Idorai mustaqilla (idorai mutlaqa-monarxiya).
2. Idorai mashruta (konstitudiyali parlamentli hokimiyat).
3. Idorai jumhuriyat (respublika).

Lekin millat ozod bo‘lib, o‘zining mustakil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchratamiz:

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahil mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma’murlarinada ma’qul o‘lur. Bir ming faqirning raddu mudoxalasi mo‘tabar o‘lmaz va so‘zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o‘zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahro va qariyalarda o‘lanlarining o‘ndan to‘qqizi sho‘yla nomunosib kishilardan iboratdir». Shu gazetaning o‘sha yili 4-noyabrda bosilgan «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o‘lkadan yetmish ming rusdan olti deputat bo‘lgani holda yetti million musulmonga besh o‘rin ajratilgani oshkora tanqid qili-nadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriaxloqiy, binobarin, g‘ayrinsoniydir. Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo‘ldan bordilar:

1. Rusiyaga tobelikdan zo‘rlik yo‘li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo‘zg‘oloni, 1916-yil voqealari, «bosmachilik»).

2. Murosa yo‘li. Ruslar yordamida ma’rifatga erishish. Ma’rifat masalalarida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (Ismoilbek Gasprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo‘li. Chor ma’murlari, so‘ng esa Sho‘ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olish. Buning uchun ma’lum tayyorgarlik ko‘rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Vatan taqdiri qun tartibiga qo‘yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o‘lka qurultoyida hayajonli nutq so‘zladi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, itgifoq bo‘lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sa-babli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

U haq edi. Mustamlakachilar «50 yil ilm-ma’rifatdan chetda saqlab kelgan»lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo‘ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig‘vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir Fevral o‘zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e’lon qiladigan bo‘ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig‘i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat huku-matining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig‘iga ko‘ra Samarqand ijroiya qo‘mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay’at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e’loni oldindan mo‘ljallanganidek tantanaga, tantana esa fo-jiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmas choh paydo bo‘ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo‘yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o‘lka s’ezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan «o‘z ixtiyorlari ilan» borgan deputatlarga

to‘nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur s’ezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf’i tuhmat» («Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi. Shu yil noyabrning 26sida Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o‘tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e’lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo‘yilgan jildiy va jasoratli qadam edi. Uning ma’naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. «27-noyabrda Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s’ezdida e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsun! Kamina ham majlisda bo‘lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!» - deb yozgan edi Behbudiy.

Muallif bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi. «Bovurlar! - deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, - bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya’ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o‘zi birlashib, g‘ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan be-rilmas. Boshqalarning qo‘lidan kelsa, bermaslar. Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘liga sa’y qilmasak, albatta hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar. Bul, albatta shundaydur va bul so‘zga hech kim ixtilof qilolmaydur… Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya’ni qirg‘iz, qozoq, o‘zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog‘istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va hamda mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg‘a kelishiga sa’y va ehtimol etmog‘imiz lozimdur…

Chirog‘larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatlidavlatlarga tobe’ bo‘lub, yutilub, hatto tilini yo‘qotgan o‘z

jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg‘a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomurig‘a bolta urmoqlikdur».

Muxtoriyat boy berildi. Uni otalarimiz saklab qololmadilar. U Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19-20-fevral kunlari shahar to‘pga tutildi. 10 mingta turkistonlik o‘ldirildi, 180 ta qishloqqa o‘t qo‘yildi.

Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi.

Orzulari chilchil bo‘lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida – 25-martda Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O‘nlab marsiyalar yoziladi. «Behbudiyning sag‘anasini izladim» deb atalar edi Fitratning bir she’ri. Ayniyda bir emas, uch she’r bor.

Mashhur Cho‘lpon ham Behbudiyning fojiali o‘ldirilganiga bag‘ishlab she’rlar yozdi.

Qarshi shahri 1926-37-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo‘yilgan o‘sha 1926-yildayoq u mansub bo‘lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho‘roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

1929-yilda Qozonda bosilib chiqqan «O‘zbek adabiyoti» kitobida esa «O‘zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiy bilan Fitrat qo‘yib berdi» (8-bet) degan e’tirofga duch kelamiz.

Bu gaplar haqiqat edi.

Begali QOSIMOV

“Milliy uyg‘onish” kitobi
(- T.: Ma’naviyat, 2002. –B. 217-234)

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARI

Bundan yuz yil muqaddam, to‘g‘rirog‘i XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug‘ullandilar. Buni o‘sha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining hatto ilg‘or qismida ham huquqiy bilimning yo‘qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (tashkilot) ochmoqchi bo‘lgan kishilar hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qolgan edilar. Maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyat ochgan kishilar esa bu maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyatning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojiz edilar. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko‘rgan Munavvar qori Abdurashidxonov 1914-yili "Sadoi Turkiston" gazetasining 14-iyun sonida "Jamiyatlar qanday ochilur" degan maqola bilan chiqishga majbur bo‘ldi.

Munavvar qori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, maktab yo jamiyatning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o‘zgarishi bilan kishilarda ibtidoiy huquqiy bilimning yo‘qligi, ayniqsa, yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibtidoiy huquqiy ma’lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor berdilar.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat Dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko‘tarish uchun esa kamida Toshkent shahar Dumasining a’zosi bo‘lish lozim edi. Chor hokimiyati yillarida markaziy va mahalliy Davlat Dumalariga a’zo bo‘lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o‘zlarining el-yurt oldidagi burchlarini

bajargan, deb bo‘lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat Dumasining a’zosi sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

2001-yili Haarlem (Gollandiya)da nashr etilgan "Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924" degan to‘plamdan ma’lum bo‘lishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"ni tayyorlagan va bu "Loyiha"ni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Usmon Xo‘jaev (Usmon Xo‘ja, 1878-1968) xotirasiga bag‘ishlangan ushbu to‘plam uning farzandi doktor Temur Xo‘jao‘g‘li tomonidan nashrga tayyorlangan (Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001).

Mazkur "Loyiha" Mahmudxo‘ja Behbudiyning Rossiya Davlat Dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun Dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergan va u shunday yo‘l bilan Turkiston masalalari bo‘yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gasparalining qo‘liga tushgan. I.Gasparalining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemito‘g‘liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I.Gasparali arxividan Behbudiyning "Loyiha"sini topib, uni Temur Xo‘jao‘g‘liga bergan. Shu tarzda "Loyiha" Temurxo‘janing tashabbusi va mehnati bilan dastlib Gollandiyada chop etilgan to‘plamda, keyin prof. Begali Qosimov vositasida O‘zbekistonda "Jahon adabiyoti" jurnalining 2003-yil 8-sonida e’lon qilingan.

"Loyiha"ga yozilgan kirish so‘zidan ma’lum bo‘lishicha, Behbudiy 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma’ruzalar yozib bergan va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog‘liq muhim masalalarni ko‘targan. Bizningcha, zikr etilayotgan "Loyiha"da Behbudiyning o‘sha ma’ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o‘zining yangicha talqinini topgan bo‘lishi mumkin.

Loyiha to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Duma xususinda.
2. Rusiya musulmonlari raisi.
3. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi asosining musavaddasi (qoralamasi) Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi xususinda.
4. Idorai ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.
5. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.
6. Idorai ruhoniya va doxiliya mas’uliyati.
7. Turkiston qozilari xususinda.
8. Joniy va badkorlar (jinoyatchi va bezorilar).
9. Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

"Loyiha"ning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhlashdan avval shuni aytish joizki, Behbudiy 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishlash jarayonida o‘zining katta iste’dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va mufti darajasiga erishgan. Ammo, 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo‘lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta’limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala – yangi tipdagi maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid’at va jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o‘rtasida ma’rifat ziyolarini tarqatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Turkistonning ilg‘or kishilari safidan o‘rin egallagan Behbudiy 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so‘zlashi yig‘ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasi a’zolari o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat Dumasiga havola etmoqchi bo‘ladi.

Behbudiyning 3-Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasiga yo‘llagan "Loyiha"sining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag‘ishlangani bejiz emas. Prof. Begali Qosimov "Jahon adabiyoti" jurnalining zikr etilgan sonida bosilgan kirish so‘zida yozishicha,[1] 1- va 2-Davlat Dumalarida qizg‘in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo *muxtoriyat* tushunchasi o‘sha vaqtda hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma’nosini anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari *madaniy muxtoriyat* tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxlsizligini nazarda tutganlar. Bu o‘sha davr uchun, shubhasiz, jasoratli harakat hisoblangan.

Endi bevosita "Loyiha"ning birinchi bo‘limiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat Dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiy bu masalada Turkistondagi musulmon aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu moddaga eslatma sifatida aytish lozimki, o‘sha vaqtda Turkistonda o‘rnashib olgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo‘lgan.

"Loyiha"dagi "Rusiya musulmonlari raisi" deb nomlangan ikkinchi bo‘limning ma’no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan. Behbudiyning fikricha, Umumrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarini bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya’ni Rossiyaning poytaxtida mahkamai islomiya tashkil etilishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma’lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston idorai ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag‘ishlangan uchinchi bo‘lim "Loyiha"ning eng katta bo‘limi bo‘lib, o‘n moddadan iborat. Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o‘z qamroviga olgan:

[1] Жаҳон адабиёти. - 2003. - 3-сон.

1. Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir idorai ruhoniya va doxiliya (Diniy va ichki ishlar idorasi)ni tashkil etish va bu idorani Toshkent shahrida barpo etib, unga "birinchi darajali ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi"ni saylov yo‘li bilan besh yillik muddatga shayxul-islom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais – shayxul islom, 5 diniy alloma – a’lam, 5 oliy va o‘rta ma’lumotli musulmon – chilon (a’zo), shuningdek, mirzo va sarkotib.

3. A’lam va chilon (a’zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo‘li bilan tayinlash.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a’lam va chilon (a’zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo‘li bilan jalb etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balarini ochish va bu sho‘balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi – oxund, 3 diniy ulamo – viloyat a’lami, 1 oliy ma’lumotli musulmon – viloyat chiloni (a’zosi) va, agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi, uning sho‘balari va dorulqazo(qozixona) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma’lumotli musulmonlardan saylov yo‘li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo‘llar boshqaruvchilari, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

10. Bu idoralarning barchasi sho‘bai ruhoniya va sho‘bai hayotiyaga bo‘linadilar. Behbudiy Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismlariga keng to‘xtabgina qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergan. Umuman, "Loyiha"ning sharhlanayotgan bu birinchi qismida Idorai ruhoniya va

doxiliya masalalari muallifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o‘rtasida Islom dini katta mavqega ega bo‘lib, uning ma’naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o‘ylaganidek, yangi diniy tuzilma – Idorai ruhoniya va doxiliya orqali ta’sir ko‘rsatish va aholining turmush tarzini shu tuzilma yordamida o‘zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun ham mazkur "Loyiha"da Idorai ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas’uliyat doirasi quyidagicha belgilangan:

4-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya a’zolarining xatti-harakati.

1. Shayxul-islom va oxund – ruhoniy va shar’iy ishlar, a’lamlar – qonun-qoidalar va zamonning zarur ishlari, a’zolar esa turli-tuman ishlar bilan shug‘ullanadilar. Muhim ishlarga viloyat a’lamlari va a’zolari ham chaqirilib, majlis o‘tkaziladi. Hatto lozim bo‘lganda Rossiyadagi Idorai ruhoniya va muxtoriyat doiralaridan maslahat olinadi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi sho‘balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga rioya qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm va qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo‘ladi.

4. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayxul-islomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlari bu idoralarning ruhoniy va hayotiy sho‘balari to‘g‘risida ma’lumot olish, taftish qilish va hisob so‘rashga haqlidir.

5-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Bu bo‘limda Idoraning faoliyat doirasi o‘n ikki moddada belgilangan va ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Idora o‘z sho‘balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o‘rtasida aloqa o‘rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma’lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug‘ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xullas, ro‘zg‘or va oila ishlari, turli xil ko‘chma va ko‘chmas mulk hamda nomus da’volari bilan shug‘ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-sahovat, vasiyat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek, maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar’iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so‘ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniy va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiradigan shaxslarni imtihon qilib, ular saviyasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnoma beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoiya jug‘rofiyasiga muvofiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko‘ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorai ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan shug‘ullanish va bu muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu "Loyiha"ning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorai ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag‘ishlangan so‘nggi 6-bo‘lim quyidagi masalalarni o‘z ichiga olgan:

1. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balari, ijroiya mahkamasining, a’lam va a’zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinoyatlari Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorai ruxoniya va dohiliyaning rais, a’lam va a’zolarining jinoyatlari taftish komissiyasi tomonidan o‘rganiladi.

Rossiyadagi barcha Idorai ruhoniya va muxtoriyatlarni tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasining vazifasiga kiradi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining tuzilmasi, a’zolarining xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas’uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaviy huquqiy bilimlarni puxta egallaganligi yaqqol ko‘rinib turadi.

7-bo‘lim. Turkiston qozilari xususinda.

Behbudiy qozixonada ishlagani va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o‘n moddada ifodalagan va bu mlddalarning asosiylari quyidagilardir:

1. Turkiston qozilari hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyiqliklari Idorai ruhoniya va doxiliya yoki sho‘basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo‘shatish masalasi ham mazkur Idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o‘rniga shar’iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir volostda bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinning vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorai ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo‘lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi appelyatsiya uchun Idorai ruhoniyagacha ko‘tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o‘zbekcha) yozilib, da’vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilari tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyadagi adliya mahkamalari tomonidan e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq va h.k.

"Loyiha"ning "Joniy va badkorlar" ("Jinoyatchi va bezorilar") degan sakkizinchi hamda "Turkiston yahudiylari va ajnabiylari" degan to‘qqizinchi bo‘limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarni adolatli

hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar turkistonliklar 3 marta o‘g‘irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo‘lsalar, ular Idorai ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin va h.k.

Behbudiy Idorai ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog‘liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog‘liq "talab va modda"lardan iborat "Loyiha"ning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma’ruza tarzida taqdim etgan. Bu qism quyidagi to‘rt bo‘limdan tashkil topgan:

1. Milliy mahkamalar xususinda.
2. Vaqflar xususinda.
3. Umumiy maktablar.
4. Suv va yerlar xususinda.

"Mulkiy mahkamalar xususinda" deb nomlangan birinchi bo‘limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

"Loyiha"dagi vaqf masalasiga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarini butkul Idorai ruhoniya ixtiyoriga o‘tkazishga qaratilgan. Behbudiy, "Loyiha"ning boshqa bo‘limlaridan ham ma’lum bo‘lganidek, o‘lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorai ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu Idora ixtiyoriga o‘tkazish yo‘li bilan Turkistonning "madaniy muxtoriyati"ga erishmoqchi bo‘lgan.

Yuqoridagi moddalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, Behbudiy bir tomondan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganlarini ko‘zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyadagi rus fuqarolari bilan teng huquqli bo‘lishi, ikkinchi tomondan, Turkistondagi rus ma’muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning "madaniy muxtoriyat"iga erishish yo‘llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari "Loyiha"ning suv va yer haqidagi bo‘limida ham o‘z ifodasini topgan.

Behbudiy 1907-yil noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi kishanlarini bo‘shash-tirmoqchi bo‘lganki, biz bu hujjatda oradan o‘n yil o‘tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g‘oyalarining dastlabki sadolarini ko‘ramiz. Behbudiyning bu "Loyiha"si bilan Turkistondagi mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo‘lgani shubhasiz. O‘lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorai ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o‘tkazilishi, shuningdek, maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg‘a surilgan takliflar Behbudiyning o‘z davridan kamida o‘n yilga ilg‘orlab ketganini ko‘rsatadi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY PUBLITSISTIKASI

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ko‘plab publitsistik maqolalari hali qayta nashr etilganicha, to‘g‘rirog‘i, to‘planib, o‘rganila boshlaganicha yo‘q. Ammo, hozirning o‘zida kitobxonlar e’tiboriga havola etilgan maqolalarning o‘ziyoq uning faol siyosatchi va o‘tkir siyosiy sharhlovchi bo‘lganidan darak beradi. Chunonchi, atoqli jadid o‘zining "Xayrul umuru Avsatuho" nomli maqolasida (1906) XX asr boshlarida Turkistonda harakatda bo‘lgan to‘rtta partiya to‘g‘risida bu haqda xabari bo‘lmagan, hatto bilishni ham istamagan ommaga ma’lumot berib, bu partiyalarning ijtimoiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini mufassal sharhlaydi va siyosiy ongi shakllanmagan 6 millionlik Turkiston musulmonlarini bu partiyalardan biri atrofida jipslashib, o‘z haq-huquqlari uchun kurashishga da’vat etadi. Ayni paytda u o‘ziga yaqin bo‘lgan Rusiya musulmonlari ittifoqi partiyasining 1905-yili Nijniy Novgorodda, 1906-yil boshlarida Peterburgda, shu yilning avgust oyida esa yana Nijniyda o‘z majlislariga yig‘ilib, siyosiy dasturlarini aniqlab olganliklarini aytadi. Ammo, bu partiya o‘z maqsadiga erishishi uchun o‘zlariga siyosiy dasturi bilan yaqin bo‘lgan kadetlarga qo‘shilib, faoliyat olib borajaklari haqida xabar beradi.

Behbudiyning bu maqolasi xalq ommasi siyosiy savodini chiqarish maqsadida yozilgandek taassurot tug‘diradi. Ehtimol Behbudiydek yetakchi siyosiy arbobning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri xalqni siyosiy jihatdan savodli qilish va sekin-asta uni siyosiy kurash maydoniga olib chiqish bo‘lgandir.

Behbudiyning siyosiy publitsist sifatidagi faoliyati, ayniqsa, 1913-1915-yillarda "Oyna" jurnali va "Samarqand" gazetasini nashr etgan vaqtda kuchaydi. Bu vaqtda u nafaqat Turkiston xalqlari hayotini, balki xorijiy Sharq mamlakatlaridagi ahvolni ham yaxshi bilgan va har ikki hayotni o‘zaro qiyoslagan holda gazeta va jurnalning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab olgan va aniq maqsad bilan harakat yurgizayotgan edi. Behbudiy muharriri bo‘lgan bu

nashrlarning g‘oyaviy yo‘nalishi esa birinchi navbatda xalq ommasining og‘ir iqtisodiy va madaniy sharoitda yashashiga sabab bo‘lgan ba’zi bir urf-odatlardir. Otashin publitsist o‘z maqolalarida ana shunday qusurli va zararli odatlardan biri bo‘lgan to‘y masalasini ko‘taradi. Qizig‘i shundaki, bu masala bugungi voqeligimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Bundan birmuncha vaqt avval O‘zbekiston televideniesi "To‘ylarimiz - o‘ylarimiz" degan rukn ostida bir necha yil davomida turkum ko‘rsatuvlarni berib bordi va xalqni to‘y masalasiga aql va zakovat bilan qarashga da’vat etdi. Behbudiy va boshqa jadidlarimiz esa hamisha dolzarb bo‘lib kelayotgan bu mavzuni 1913-yildayoq ko‘targan edilar.

O‘zbek xalqi orasida 1917-yilga qadar kechgan davrda kosiblik eng ko‘p tarqalgan va shu bilan bir qatorda ko‘p mehnat talab etadigan kasb edi. Shuning uchun ham Behbudiy "A’molimiz yoinki murodimiz" degan maqolasida shu kasb egalarini nazarda tutib yozadi: "Bechora kosibni a’moli to‘ydur. O‘zi rohat yuzi ko‘rmaydir. Kecha-kunduzni 18, balki 20 soatni mehnatda o‘tkaraturgon kosiblarimiz bordur… O‘n va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan o‘g‘il tilar, to‘y qilmoq uchun. Ana bechorani a’moli. Yigirma sanalik mehnati uch kunda tamom".

Behbudiy uch kunlik to‘y ba’zi oilalarni o‘n yil, hatto bir umrlik tashvishlarga giriftor etishi, hatto xonavayron qilib, bevatan aylashi mumkinligini ta’kidlaydi. Bir to‘y kosib uchun ming, o‘rtahol kishi uchun 2000 yo 3000, "nimboy" uchun esa 5000 so‘mga tushadi. Va bu so‘mlar uch kunlik to‘yda yeb-ichilib ketadi. Kosib ham, o‘rtahol ham, hatto "nimboy" ham bu mablag‘ni bonka, firma yo "foydaxo‘r"dan oladi. Shuning uchun ham ular qarzni to‘lash paytida "bog‘u xona va uyi ichidagi asbob"ni sotishga, hatto "bechora kelin va kuyov"ning ko‘rpa va libosini "qarzgoh"ga berishga majbur bo‘lishadi. "Nimboylar sinar, - deb yozadi Behbudiy, - tirikliginda bo‘lmasa, o‘lganda sinar. Ahlu ayoli darbadar bo‘lur. Oy, bu nima? To‘g‘risi, bir nav devonalik emasmi? Subhonolloh, qarz olib, xalqg‘a osh bermoq aqlsizlik emasmi? Hamda illati bedavosidur" (158-bet).

Xalq faqat to‘y munosabati bilan emas, balki boshiga musibat tashvishi tushganida ham shunga yaqin oqibatlarni boshidan kechirishi mumkin. Shuning uchun ham Behbudiy chinakam gumanist inson va ma’rifatparvar sifatida xalqni ichdan kemirayotgan urf-odatlarning past-baland tomonlarini ochib tashlaydi. Behbudiy ko‘targan masala xususiy ahamiyatga emas, balki umumo‘zbekiy ahamiyatga molikdir. Negaki, katta xalqning to‘yi bo‘lmagan, o‘limi bo‘lmagan kuni yo‘q. "Har kun, - deb yozadi publitsist, - bir musulmonni nimarsalari bozorg‘a dini uchun… sotilur. Har kun na qadar veksellar – "protest", na qadar do‘kon, korxona hajz (pechat) bo‘lur. Bu nimaning jazosi? To‘y, ma’raka, ta’ziya, ko‘pkari, bazm" (o‘sha bet). Holbuki, bir mahallada 20 nafar kishidan biri yo savodli, yo savodsiz. Hattoki, bugun qozilik qilayotgan kishi o‘rniga ertaga shunday bir savodli-ilmli kishi topilmasligi mumkin. Behbudiy ana shunday xalq turmushi manzarasini chizib, xitob qiladi:

"Hoy, hoy, xaloyiq! Bizlar devonami, sog‘? Albatta…Biz to‘y va ma’raka xayolidan lazzat olarduk. To‘yu ma’rakamiz ila faxr qilar eduk. To‘yu ma’rakaga sarf qilinaturg‘on oqchani jamlamoq va yo qo‘lg‘a kirguzmoq uchun harakat etarduk. Agarda to‘y va ma’rakag‘a qadimgidek oqcha to‘kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki, to‘y va ma’raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortiqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o‘qito‘lsun. To‘yu ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig‘a sarf etilsun. To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorilfunun va dorilsanoatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to‘yu ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O‘runburg‘ va Qozong‘a usuli ta’lim o‘rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur…" (159-bet).

Ko‘ramizki, zikr etilgan maqolada Behbudiy ikki muhim masalani ko‘targan. Bu masalalarning har ikkisi ham xalq taqdirida o‘z aksini ko‘rsata oladigan masalalardir. Behbudiy bu masalalardan birini ko‘tarib, xalqning to‘y va ma’rakalar tufayli yana ham qashshoqlanishi mumkinligi haqida bong urib, uni ortiqcha sarf-xarajat qilmaslikka chaqirganida, xonavayron bo‘lishi haqida ogohlantirganida otashin gumanist sifatida maydonga chiqadi va o‘z qarashlarining gumanistik mohiyatini namoyon etadi. Ammo, u bu bilangina kifoyalanmaydi. To‘y va ma’rakalar uchun sarf qilinajak xarajatni o‘z farzandlarining o‘qishiga, madrasa va maktablarni ta’mir qilishga, talabalarni xorijiy shahar va o‘lkalarga yuborish uchun sarflashga chaqiradi. Bir tomondan, u kambag‘al xalqni xonavayron bo‘lish xavfidan xalos etmoqchi bo‘ladi, ammo, ikkinchi tomondan, unga yana sarf-xarajat eshigini qaerga qarab ochish haqida maslahat bermoqda. Bu, uning qarashlaridagi ziddiyatdan dalolat bermasmikin?!

Behbudiy garchand har ikki xarajatning moddiy jihatdan farqini ko‘rsatib o‘tmagan bo‘lsa-da, keyingi xarajat avvalgisiga nisbatan anchagina oz. Lekin, eng muhimi, bu yeb-ichilib ketadigan xarajat emas, balki qaytib keladigan, farzandlari taqdirini boshqa nurli manzillar tomon yo‘naltiradigan va, shubhasiz, ota-onalarning o‘zlari ham mevasidan bahramand bo‘ladigan harajatdir. Demak, Behbudiy bu ikkinchi masalani ko‘tarib, yuzidagi ma’rifatparvarlik "niqobi"ni ko‘rsatganida ham gumanist bo‘lib qoladi va ayni paytda ma’rifatparvarlik jabhasidan chetga chiqmaydi. Aksincha, agarda birinchi taklifi asosan har bir xonadonni xonavayron bo‘lishdan saqlab qolishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi taklifi, bir tomondan, shu xonadonni, ikkinchi tomondan, butun xalqni ma’rifatli etishni ko‘zda tutadi. Muhimi shundaki, Behbudiy o‘zining ana shu ruhdagi taklif va istaklarini bayon etish asnosida o‘z ma’rifatparvarlik dasturini bizga izchil bir tizim tarzida taqdim etadi.

Behbudiyning ma’rifatparvarlik dasturi quyidagi masalalardan iborat:

1. Bolalarni musulmon, usuli jadid, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarda o‘qitish.

2. Eski madrasa, mozoru masjid va maktablarning "shikast rext"larini ta’mirlash.

3. Bolalarni Sharq mamlakatlari va Ichki Rusiyadagi dorilfunun va dorilsanoatlarga o‘qishga yuborish.

4. Bolalarni Rusiya hukumati maktablarida o‘qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruschaga o‘qitish va tarbiya qilish; bu ikki yil uchun to‘lanajak 600 so‘m miqdoridagi pulni to‘y-ma’rakalar uchun jamlangan mablag‘dan olish.

5.Bolalarni tarbiya qiladigan pansionlar ochish; bu tarbiyaxonalarning zamonaviy, milliy va diniy ruhda bo‘lishiga erishish.

6. Bu tarbiyaxonalarni ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun "Nashri maorif", yoxud "Jamiyati xayriya", yo "Jamiyati atfol" singari jamiyatlarni ochish.

7. Bu jamiyatlar yordamida va tegishli yuqori malakali o‘quv yurtlarida o‘qitish orqali huquqshunos, injener, muhandis singari mutaxassislar bilan birga "zamona maktabdori", millat xomiysi va xodimi, "Davlat Dumasig‘a" deputat, milliy sanoatimizni isloh eta biluvchi, texnik, tijorat va bankalarda ishlay oladigan, shahar dumalarida va umuman Turkistonda ochilajak idoralarda ishlaydigan mutaxassislarni yetishtirishdir.

"Hozirgi mo‘ysafidlarimiz tursun, o‘rta yoshlar yaqinda o‘lib ketar, zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlik va fununi zamoniyani darbar qilgan odamlarni talab qilur. Bu kundan boshlab har shahardan har sana o‘n-yigirmalab hukumat maktablarinda bola berilsa, o‘n besh sana so‘ngra har shaharda 4-5 zamona odami paydo bo‘lur va hukumat mansablarig‘a, zamona doiralariga, tijorat va sanoatlarinda kirib, bizlarg‘a manfaat yetkurur. Kelar zamon boshqadir" (160-bet).

Behbudiyning bu ma’rifatparvarlik dasturi xalqni bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarish, uni milliy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, o‘zini-o‘zi eplash va boshqarish mumkin bo‘lgan bosqichga ko‘tarishni ko‘zda tutadi. Shubhasiz, bu dastur faqat ma’rifiy yuksalishni emas, ma’rifiy kamolot orqali hur va erkin zamonlarga erishishni ko‘zda tutadi va uning yo‘nalishi ham uzoqqa – hurriyat manzillariga qaratilgan.

Behbudiyning e’tirof etishiga ko‘ra, o‘sha paytda ikki o‘zbek o‘zaro urishib yo tortishib qolsa, yahudiy yoxud ajnabiy zakunchining oldiga borgan, boshi og‘rib qolsa, ajnabiy doktorga yo‘liqqan. Shuning uchun ham to‘y, ma’raka va ko‘pkari o‘rniga shu "a’mol-ideal-murod-tilak-muddao" yo‘lida harakat qilish tarix taqozosidir.

Xo‘sh, o‘z xalqi va vatanining kelajagi haqida jonkuyarlik qilgan Behbudiyning Turkistondagi siyosiy ahvolga, xalqning huquqiy madaniyatini oshirish masalasiga qanday munosabatda bo‘lgan? Davlat va jamiyat qurilishi masalalari ham uning adabiy-ilmiy merosida biror mavqe kasb etganmi?

Shubhasiz, Behbudiy o‘z xalqining kelajagini faqat ma’rifat masalalari bilangina bog‘lab qo‘ymagan. Har taraflama ma’lumotli bo‘lgan alloma o‘z xalqining kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqib, boshqa davlatlarning siyosiy tuzumini o‘rgangan va qaysi davlat tuzumidan andoza olish mumkinligi borasida bosh qotirgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Behbudiyning 1906 yil nashr etilgan "Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy" ("Umumiy jug‘rofiyadan saylanma kitob") degan asari ayniqsa muhimdir. Behbudiy ushbu asarning muqaddima fasllaridan biri "jug‘rofiya" fanining ahamiyati va bu fanning "tarixiy jug‘rofiya", "siyosiy jug‘rofiya" va "umroniy (umumiy) jug‘rofiya" degan qismlardan tashkil topishi haqidagi fikrlarini bayon qilgach, yozadi:"Xulosa, bu zamong‘a jug‘rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot va harnaki dunyog‘a bordur,, bildiraturg‘on kerakli, bir ilmiy jahonnomadur…" Behbudiy shu so‘zlardan keyin kishilik jamiyati tarixi va uning muhim nuqtalariga to‘xtalib o‘tadi. Asarning

"Hukumat va hukmronlar" deb nomlangan fasliga kelib, bevosita davlat qurilishi masalalariga oid fikrlarini o‘rtaga tashlaydi.

Sharqda Fransiyani "Farangiston", fransuzlarni esa "farang", "farangi" deb atab kelishgan. Ammoб ayni paytda "farang" so‘zi umumlashtirilib, umuman yevropaliklarga nisbatan ham qo‘llangan. Shu ma’noda Behbudiyning quyidagi so‘zlarida ham bahs fransuzlar haqida emas, balki XX asr boshlaridagi yevropaliklar va ularning davlat tizimlari haqida boradi:

"Hozirg‘a faranglar o‘rtasig‘a mo‘tabar uch qism hukumat yo hukmronlik bordur. Birinchi – idorai mustaqilla (idorai mutlaqa)ki, oni ustidan qaraguvchi podshoh sohib ixtiyor va har bir royi va amri zako‘n va nizom bo‘ladur. Amri, hukmi, royi nofizdur. Qo‘l ostidagi barcha majlislar, maslahatxonalarni ittifoqi, xohishi, hukmi o‘shal imperato‘rni mustahkam qilishi imzosig‘a mavkufdur. Shunday imperato‘rlarni yangidan mansub bo‘lishi har davlat va hukumatga muqarrariy qonun va odatlar bo‘yuncha meros yoinki valiahdlik qoidalari va o‘shal hukumatni qo‘ygan tartib va tadbirig‘a muvofiq bo‘ladur" (234-bet).

Demak, XX asr boshlaridagi Yevropa davlatlarida harakatda bo‘lgan uch siyosiy tuzumdan biri monarxiya bo‘lib, unda saltanat egasi bo‘lgan kishining xususiy qarashlari ustivor ahamiyatga egadir.

"Ikkinchi qism, - deb yozadi Behbudiy, - idorai mashruta hukmronligidurki, bu hukumatg‘a tobe odamlar aksari ahli ilm va xabardurlar. El va urug‘lari ilm, hunar va dunyo ishlarig‘a taraqqiy qilgandurki, shul tariqa fuqarolar o‘z arolaridan insoflik, ilm va dunyodan xabarlik odamlarni o‘zlarig‘a katta va boshqarg‘uvchi vakil saylaydurlar. Shu tariqa saylangan vakillarni podshoh jamlab, muqarrariy mahkamalarg‘a, mamlakatdorlik ishlarig‘a aralashib, mashvarat ila tuzatilmoq va muhofazat qilmoqg‘a ko‘z bo‘lmoqlari uchun qaror beradurki, alarni majlis va mahkamalarini "millat majlisi", "maslahatxona", "parlamentu", "go‘sudarski dum", "majlisi sinodiy", "el majlisi" degan ismlar ila yod qilinadur. Yana ba’zi maslahatxonalar borki, maslahatboshilarni, hukmdorlarni o‘zi tayin qiladur. Ushbu "millat majlisi"ni chilonlari mashvarat ila mamlakat

ishlarig‘a aralashib, nizom va qonun tuzatib, hukmdor va podshohlarni qilaturgon ishlarig‘a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig‘a tobe’dur" (243-244 – betlar).

Behbudiy tavsifidagi ikkinchi davlat tuzumi, bugungi atama bilan aytganda, parlamentar respublikadir. Davlat qurilishining bu turida podshoh yo saltanat rahbarining mavjud bo‘lishiga qaramay, parlament yo "millat majlisi" uning ra’yiga emas, aksincha, u shu tashkilot a’zolarining ra’yiga qaraydi va uning qonunlariga bo‘ysunadi.

Endi Behbudiy talqinidagi uchinchi davlat tuzumi bilan tanishaylik. "Uchunchi qism, - deb yozadi publitsist, - "Idorai jumhuriyat"durki, aksar fuqarosi ahli ilm bo‘lub, bu ahli donish aholini saylagan vakillari ba’zi hukumatg‘a yetti yilg‘acha o‘z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog‘i uchun o‘z arolaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydurlarki, "raisi jumhuriyat", "sadrinishini millat", "prezident" ataladur. Har bir hukm va amr va tartibni mamlakat va ko‘bg‘a taalluqli ishni "Millat majlisi"ni qilib bergan dasturulamal, ya’ni qonun va nizomnomalarig‘a muvofiq qilib, butun elg‘a tobe’ bir kishidur. Har bir ishg‘a "millat majlisi" hukmig‘a tobe’, alarni hukmu talablarini o‘rnig‘a keltirguvchidur. Bu ikki toifani podshohi ba’zi mamlakatga "Elga tobe bo‘lub turarman", deb qasam ichib, ba’d mansabg‘a chiqadur" (244-bet).

Yevropa mamlakatlaridagi davlat tuzumini Behbudiy ana shu tarzda uch guruhga ajratadi va ularning farqlovchi xususiyatlarini shunday so‘zlar bilan tavsiflab beradi. U bu davlat tuzumlari o‘rtasidagi farqni ham shu davlatlar tasarrufidagi istiqomat qiluvchi xalqning ilmli-ilmsizligi, ma’rifatli-ma’rifatsizligi bilan bog‘laydi. Xalq qanday madaniyat va ma’rifat bosqichiga ko‘tarilgan bo‘lsa, uni idora etayotgan siyosiy tuzumning ham shu xalq darajasini aks ettirishi mumkinligiga e’tiborini qaratadi.

Demak, Behbudiy nazarida Yevropa mamlakatlarida uch xil davlat tuzumi barpo etilgan bo‘lib, bular: monarxiya, parlamentar respublika va respublika idora usullaridir.

Behbudiy xuddi shu yili "Xurshid" gazetasining 6-sonida e’lon qilingan "Xayrul umuri avsatuho" nomli maqolasida Rossiyada siyosiy faoliyat yurgizayotgan partiyalar va ularning dasturulamallarini ham sinchiklab o‘rganganini namoyish etgan edi. Uning kuzatishiga ko‘ra, o‘sha paytda amalda bo‘lgan Rossiyadagi to‘rtta partiya quyidagilar edi:

1. Mustabid firqasi (hukumat partiyasi).
2. Mashrutai avomiya (kadetlar partiyasi).
3. Ishtirokiyun ommaviyun (sotsial-demokratlar partiyasi).
4. Rusiya musulmonlari ittifoqi.

Ushbu to‘rt partiyaning so‘nggisi 1906-yil 13-23-yanvar kunlari Rossiya musulmonlarining Peterburgda bo‘lib o‘tgan II qurultoyida tuzilgan.

Agar to‘rt partiyadan dastlabki ikkisining Yevropadagi davlat tuzumlaridan monarxiya va parlamentar respublikaga ruhan yaqin ekanligini, ayniqsa, yetakchi partiyaning mustabid partiyasi deb atalganini inobatga olsak, Behbudiyning chor hukumati va uning yetakchi partiyasiga bo‘lgan munosabati ayniqsa oydinlashadi. Shuningdek, uning kelajakda Rusiya musulmonlari ittifoqiga katta umid bilan qaragani ma’lum bo‘ladi.

JADIDCHILIK VA TEATR SAN’ATI

Turkiston tarixida qon shimgan sahifalar ko‘p bo‘lgani sababli, Milliy ozodlik harakati deganimizda ko‘z oldimizga birinchi galda qurolli to‘qnashuvlar, isyonlar va behisob shahidlar keladi. Darhaqiqat, bir yonda jadid ziyolilari maorifni, adabiyot va san’at hamda boshqa sohalarni isloh etib, yangi mustaqil va milliy davlat asoslarini barpo etish yo‘lida kurash olib borayotgan bo‘lsalar, ikkinchi tomonda mahalliy aholi mustabid tuzumga qarshi norozilik chiqishlarini bir soniyaga ham to‘xtatmagan edi. Bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan bu ikki jarayon chor Rossiyasi uchun jiddiy xavotir tug‘dirar edi. Shu sababli, mahalliy xalqlar intilishlariga barham berish uchun katta kuchlar safarbar etilgan edi.

Uzoq yillik kurash yo‘lini bosib o‘tgan jadidchilik harakati 1905-yilgi fevral va 1917-yilgi oktabr inqiloblarini ham boshidan kechirdi. Oqibatda, Turkiston o‘lkasida Milliy Muxtor Jumhuriyatlar barpo etish uchun zamin yaratiladi. Ammo, ungacha xalqning mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab norozilik chiqishlari bo‘lib o‘tgan edi. 1875-yilda Po‘latxon, Qurbonjon Dodxoh boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar, 1892-yilda Toshkentda yuz bergan “Vabo qo‘zg‘oloni” (“Toshotar qo‘zg‘oloni” deb ham yuritiladi), 1898-yilda butun Turkiston o‘lkasini larzaga solgan, “Andijon qo‘zg‘oloni” nomini olgan, Muhammad Ali eshon (xalq orasida Dukchi eshon Muhammad xalfa va Shayx Muhammadali nomlari bilan mashhur) boshchilik qilgan xalq ozodlik harakatlarining chor hukumati tomonidan qonga botirilishi, mustamlakachilarning o‘lka ma’naviy boyliklarini oyoqosti qilib, iqtisodiy boyliklarini shafqatsiz ravishda talon-taroj qilishlari jadidchilik harakatining buyuk rahnamolari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi oydinlarimizning ko‘zini ochdi. Ular hali ongi yetilmagan, qora xalqni zamonaviy harbiy texnika bilan qurollangan yovuz mustamlakachilarga qarshi kurashga oyoqlantirish mumkin emasligini, birinchi navbatda xalqning ongini yoritish zarurligini tushunib yetdilar. Shu ma’noda

XIX asr oxirlarida jamiyatning eng ilg‘or fikrli qatlamlari qarashlarini yuqori ko‘targan milliy uyg‘onish muayyan mafkura sifatida dastlabki davrda ma’rifatchilikda o‘z aksini topdi. Milliy uyg‘onish davri mutafakkirlari o‘zbek xalqini ham rivoj topgan xalqlar bilan teng ko‘rishni istadilar va bu istakni amalga oshirishning asosiy yo‘li sifatida maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish masalasiga butun kuch-g‘ayratlarini, bilim va iste’dodlarini safarbar qildilar. Bu masalani hal qiilishda ular birinchi galda matbuot va teatr sahnasiga murojaat qildilar.

Jadid oydinlari, birinchidan, o‘z oldilariga millatni ma’rifatga, ilmga yetaklash vazifasini qo‘ydilar. Buning uchun o‘zlarining badiiy va publitsistik asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surdilar. Ikkinchidan, XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining turli burchaklarida ochilayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan “usuli savtiya tadrijiya” (“usuli jadid”) maktablari uchun mablag‘ ishlab, “Jamiyati xayriya” yoki “Vaqflar” orqali shu maktab va maorif maskanlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, maktablarni o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan mamlakatlarga (ko‘proq Turkiya, Germaniya va Rossiyaga) o‘qishga yuborish vazifasini qo‘ydilar. “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari hamda “Oyina” jurnallarida ushbu masalaga bag‘ishlangan maqolalarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, teatr tomoshalaridan tushgan mablag‘ning qanday maqsadlarda sarf etilgani haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lamiz. “Oyina” jurnalining 21-sonida samarqandlik teatr havaskorlarining Qo‘qon shahrida “usuli jadid maktabi foydasiga “Padarkush” dramasining namoyish etilgani haqida ma’lumot beriladi va teatr mudiri Akobir Mansuriyning ushbu namoyishdan tushgan mablag‘ hisoboti beriladi. Ma’lum bo‘lishicha, tomoshadan jami 1331 so‘m 50 tiyin tushgan bo‘lib, shundan 727 so‘m 10 tiyin turli xil xarajatlarga sarflanadi. 604 so‘m 40 tiyin esa “Usuli jidid” maktabi foydasiga o‘tkaziladi.

O‘zbek dramaturgiyasining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy teatrimizning dastlabki qadamlaridanoq unga eng olijanob maqsadlarni yuklashga harakat qildi, odobga xilof maqsadlarga,

shaxsiy boyish istaklariga chek qo‘ydi, “Padarkush” spektaklini sahnaga qo‘yish uchun o‘zidan ruxsat olishni talab qildi. “Oyina” jurnalining 47-sonida Behbudiy shunday yozadi: “Ba’zi tarafdan yozilgan xatlarg‘a qaraganda, ba’zi teatrni maktab va yo jamiyat foydasig‘a qo‘yulub, ammo aqchasi bor vaqfi e’lon sarf qilinmabdur va teatr oqshomi xilofi adab ba’zi harakatlar bo‘lubdur. Oning uchun majburan e’lon qilarmizki, ba’d ushbu fojiani qo‘ymoqchi bo‘lgan muhtaram zotlar avvalan muharrirdan qog‘az ila javob olib va nimani foydasig‘a qo‘ymoqlarin bildurub, so‘ngra ishg‘a harakat etsalar...”

O‘zbek milliy dramaturgiyasi hamda milliy teatri Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” nomli dramatik asari bilan boshlanadi *(Turkiston maishatidan olingan ibratnoma, 3 parda, 4 manzarali, ilk milliy fojia).* Asar birinchi marta 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda namoyish etilib, “Oyina” jurnalida bu haqda e’tiborga loyiq maqola e’lon qilinadi. 1914-yil 27-fevralda esa Toshkentda Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi “Turon” teatri guruhi shaharning o‘sha vaqtlardagi eng katta teatr-konsert binosi – ikki ming kishidan ortiq kishi sig‘imiga ega bo‘lgan “Kolizey”da spektaklni namoyish etishi madaniyatimiz tarixida buyuk voqea bo‘lib, zamonaviy milliy teatrning tug‘ilishidan dalolat berdi. Ushbu qutlug‘ kunda o‘zbek milliy teatri sahnasini ochishdek sharafli vazifa Munavvarqori Abdurashidxonov zimmasiga tushadi. Asarga nisbatan salbiy fikrlar, havaskorlarga jismoniy tahdidlar, keskin munozaralar davom etib turgan bir vaqtda Munavarqori Abdurashidxonov ikki ming kishilik auditoriya oldida teatr san’atining ma’naviyatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida ma’ruza qiladi. Jumladan, u shunday deydi:

“Siz hurmatlularga tiyotr xususida bir necha so‘z aytmakka jasorat qilib, qarshularingizga chiqdim. Bu xususda manim gustohona harakatimni afu etmaganingizni ojizona rijo qilurman.

Bizni Toshkand shahrida bir necha martaba milliy tiyotrlar o‘ynalgan bo‘lsa ham, xolis Turkiston tilida hanuz bir tiyotr o‘ynalmag‘onlig‘i barchamizga ma’lumdir. Shul sababli ba’zi kishilarimiz tiyotrg‘a, ehtimolki, o‘yinbozliq yoxud masxarabozliq

ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, tiyotrning asl ma’nosi ibratxona yoki ulug‘lar maktabi, degan so‘zdur. Tiyotr saxnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyg‘a o‘xshaydurki, unga har kim kirsa, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rub ibrat olur. Va bu sahnada ko‘ziga yomon ko‘rungan past odatlardin va buzuq axloqlardin uzr qilmoqg‘a harakat qilur. Binoanalayh tiyotrni buzuq axloq kasallarining eng yoqimli davosiga o‘xshatgan kishi yolg‘onchi bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman.

Tiyotr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgon zotlar go‘yoki tabibi hoziq misolindadurlar. Bunlar achchiq romanlarni shirin davolari ila xalqg‘a yedirurlar va achchiq nasihatlarni suchuk so‘zlari ila xalqg‘a eshitdururlar. Biz shu zotlarga va tiyotrlarga qanday ko‘z ila boqmog‘imiz kerak? Muni o‘rganmak uchun biz o‘zimizdan boshqa mutaraqqiy mamlakatlarga boqaylik. Misli ustimizga hokim bo‘lub turg‘on ruslarga, turklarga, nemislarga, fransuzlarga, yahudiylarga va boshqalarga, ko‘b uzoq ketmayluk, eng yaqin qo‘shnilarimiz bo‘lg‘on Qofqoz musulmonlarig‘a. Bundan o‘ttiz yil muqaddam Qofqoz musulmonlaridin eng avval chiqib tiyotr kitoblari yozg‘an va yuziga un surtib tiyotr sahnasiga chiqg‘on, adibi shahid Mirza Fathali Oxundov janoblarig‘a xalq qanday ko‘z ila qaradi? Marhum Oxundov xalqning nuqsonini ko‘rsatg‘on, millat taraqqiysig‘a va mamlakat obodlig‘ig‘a xizmat qilgon, ismi har yerda haqorat ila zikr qilinurdi va o‘zidan har kim nafrat qilurdi. Lekin o‘ttiz yil o‘tgandin so‘ng marhum Oxundov janoblarining chekkan mashaqqatlari va tortgon zahmatlarini millat o‘ylab, taqdir qilub, oning xotirasi va ruhining shodligi uchun ulug‘ bir yubiley, ya’ni duo majlisi yasadilarki, hozirg‘a qadar bunday ulug‘ majlis musulmonlardin hech bir kishi uchun yasalg‘oni yo‘qdur. Marhum Oxundov tutgan yo‘lning ulug‘ foydalari hozirda ko‘rinmakda boshladi. Qofqoziyaning har bir yerida jamiyati xayriyalar ochilub, alarning tiyotru shu’balari tashkil topdi, bularning eng mashhurlari Bokuda «Najot jamiyati»durki, bu jamiyat tiyotr vositasila Qofqoz xalqining axloqini xiyla isloh qildi, g‘aflatdin uyg‘ontirdi, taraqqiy va maorifga havaslarin ortdirdi. Hozirda tiyotr vositasila har yil

minglarcha aqcha jam’ qilur. Yuzlarcha musulmon faqir va ojizlarga yordam berur. Qo‘lidan kelguncha millatining nomus va obro‘sini hifz qilur va shaharning atrofida bo‘lg‘on qishloqlarda o‘ttuzg‘a yaqin mak-tablar ochub, islom bolalarini tarbiya va ta’lim qilur. Yuzlarcha millat bolalarini tarbiya qilub, o‘qitub, haqiqiy millat va vatan xodimlari etib maydong‘a chiqarur.

Modomiki, bizim eng yaqin qo‘shnilarimiz va vatandoshlarimiz va dindoshlarimiz bo‘lg‘on totorlar va Qofqoz musulmonlari bu tariqa taraqqiy va tamaddunga qadam qo‘ydilar. Va yolg‘iz tiyotr vositasila o‘z millat va vatanlarina buncha xizmatlar ko‘rsatdilar. Biz, turkistonliklar na uchun onlardin ibrat olmaymiz? Na uchun o‘z tilimizda tiyotrlar yasab, oramizda bo‘lg‘on buzuq odatlarni yo‘q qilmoqg‘a harakat qilmaymiz? Na uchun Turkistonda birgina bo‘lg‘on jamiyatimizni va faqirlikdin inqirozga yuz tutgan maktab va maorifimizni obodlig‘iga sa’y va ko‘shish qilmaymiz?

Bizim Turkiston mamlakati tufrog‘, suv va havo jihatidin eng boy mamlakatlardin bo‘la turub, na uchun o‘zumiz bundan foydalana olmaymiz?

Mana, ketba-ket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdin xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo‘qdur. Bu nodonliq va dunyodin xabarsizlik balosidan qutulmak uchun eng avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqlig‘ini bilmak va o‘rganmak kerakdur.

Bas, bizga bu bildurg‘uvchi va o‘rgatuvchi yolg‘iz tiyotr sahnasidur. Soniyan onlarni tark qilmak keraqdurki, oni tark qildiruvchi yana jamiyat va tiyotr vositasila ochilgon maktab va madarasamizdur. Shul sababli himmatli yoshlarimizdan va himmatli boylarimizdan bu tiyotrlarga faqat o‘yun va masxarabozlik ko‘zila boqmasdan, millat va axloq jihatidan eng ibratli bir manzara va ulug‘lar uchun ochilg‘on foydali bir maktab nazari ila boqmoqlarini ojizona arz va istirhom qilurman” (“Turkiston viloyatining gazeti” 1914-yil 17-soni).

Turkistonning ma’naviy hayotida yuz bergan bu ulug‘ voqea o‘sha davr matbuoti sahifalarida keng yoritiladi. Jumladan, “Oyina” jurnali, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoi Turkiston” ro‘znomalarida bir qator maqola va taqrizlar e’lon qilinadi. Ayniqsa, “Oyina” jurnalining 22-sonida bosilgan “Toshkandda milliy teatr” nomli taqrizda asar tahlil, aktyorlar ijrosidagi mahorati haqida atroflicha bahs etiladi.

Behbudiyning "Padarkush" pesasi birinchi o‘zbek milliy sahna asari bo‘lgani uchun unda kichik bir maishiy voqea – ota-bola voqeasi tasvir etilgan. Unda ishtirok etgan qahramonlar ham ko‘p emas. Lekin Behbudiy xuddi shu oddiy voqeada xalqning kichiklashtirilgan fojiasi yotishini mahorat bilan ko‘rsatib bergan. Bu asarda shunchaki bir qotillik emas, balki maktab tarbiyasini ko‘rmaganligi orqasida yoshlikning, boylikning va hayotning ma’nosini faqat aysh-ishrat deb bilgan padarkush voqeasi tasvir etilgan. Yozuvchi bu asari bilan bolalik va yoshlikni oshiq o‘ynab o‘tkazuvchi zamonlar o‘tib ketgani, endi bilim olish, ilm-fan kuchi bilan eski turmush tarzini o‘zgartirishni talab etuvchi yangi davrning kelganini aytmoqchi bo‘lgan. Shu maqsadda u asarga Ziyoli obrazini kiritgan.

Boyligi oshib-toshib ketgan Boy Ziyoli bilan hatto gaplashishni ham istamaydi. Uning aytmoqchi bo‘lgan gaplarini eshitish, uning nazarida, jabr chekish, vaqtni benaf o‘tkazishdan boshqa narsa emas. Ammo shunga qaramay, Behbudiy Ziyolini shu Boyning qoshida gapirtiradi. Ziyoli esa, Boyning xohish-irodasiga qarshi bo‘lsa ham shu so‘zlarni aytadi:

"Z i yo l i . Hozir yangi va boshqa zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalq boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqg‘a sa’y qilmog‘imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniy".

Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash lozim: agar boshqa jadid dramalari, va hatto, aksariyat hikoyalariga nazar tashlasak, ularda muallifning o‘z g‘oyalarini ochiq va oshkora olg‘a surganini ko‘rmaymiz, aksincha, bu asarlarning mualliflari muayyan bir voqeani tasvir etishdan nariga o‘tmay, voqeanavis darajasidagina qoladilar. Ammo Behbudiyning dramaturgiyaga murojaat etishdan maqsadi ham o‘z dilidagi gaplarni, fikr va g‘oyalarni xalqqa yetkazishdir. Agar shu nuqtai nazardan Ziyoli fikrini diqqat bilan eshitsak, unda jiddiy, xalq va mamlakat taqdiri bilan bog‘liq g‘oya olg‘a surilganiga ishonch hosil qilamiz..

Ziyoli "olimi diniy"ni bunday talqin etadi:

"…O l i m i d i n i y . Imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg‘on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmiy, diniy va arabiy va bir oz ruscha o‘qub, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak yoki komil mullo bo‘lsunlar (boy mudraydur), angladingizmi, boy?" (o‘sha bet).

Boy boshini arang ko‘tarib, "Ha, ha, ayta bering, qulog‘im sizga", deydi. Endi Ziyoli "olimi zamoniy"ning qanday inson ekanligini boyga tushuntirmoqchi bo‘ladi:

" Z i yo l i . Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o‘z millatimiz tilini bilaturg‘ondan so‘ngra hukumatimizi nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg‘onlaridan so‘ng, Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokto‘rlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe’l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurulsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo‘lunsa, hattoki, shul tariqa o‘qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul

dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur…" (ta’kid bizniki – R.Sh., 43-44 – betlar).

Bu murakkab iboralarda ifodalangan fikrni to‘g‘ri va to‘la tushunish uchun "olimi zamoniy"ning Behbudiy talqinidagi muhim qirralarini birma-bir nazardan o‘tkazsak. Demak, "olimi zamoniy" bo‘lish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim.

1. Islom dini va Turkiston xalqlaridan birining tilini bilgan holda hukumatning "nizomli maktablari", ya’ni gimnaziya va shahar maktablarida o‘qish.

2. Bu siradagi maktablarni tugatganidan so‘ng Peterburg va Moskvadagi universitet va institutlarga kirib tahsil ko‘rish.

3. Shu bilan birga, oliy ta’limni olgach, Rossiyadagi davlat idoralarida ishlab, o‘z xalqining milliy manfaatlarini himoya qilish va naf keltirish.

4. O‘zidan keyingi avlod vakillarini Fransiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Turkiya singari mamlakatlardagi oliy o‘quv yurtlariga yuborish.

Ana shu to‘rt masalani ijobiy hal etgan kishigina, Behbudiy nazdida, "olimi zamoniy" hisoblanishi mumkin.

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng O‘zbekiston butunlay bolsheviklar qo‘liga o‘tdi. Ungacha va undan keyin ham O‘zbekistonda Behbudiy talqinidagi "olimi zamoniy"larni ko‘plab tarbiyalashning iloji bo‘lmadi. Lekin Buxoro Xalq Sovet respublikasi barpo etilishi bilan va bu respublika o‘zining dastlabki davrida ozmi-ko‘pmi mustaqil harakat qilish huquqiga ega bo‘lgani uchun 1922-1923 yillarda 70 dan ziyod musulmon yoshlarini o‘sha paytda yevropacha ilm-fan markazi hisoblangan Germaniyaga o‘qishga yubordi. Ular Germaniyaning turli shaharlarida yuqori malakali doktor, injener, ziroatchi, iqtisodchi, kimyogar, yurist bo‘lish uchun jonlarini jabborga berib o‘qidilar. Bu – Behbudiy orzu qilgan "olimi zamoniy" yoshlar avlodini yetishtirish yo‘lidagi g‘oyat muhim va xayrli qadam edi.

Jadid she’riyatining yirik namoyandasi To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo bu asar namoyishi munosabati bilan uchta maxsus she’r yozadi. Ulardan birida shunday misralarni o‘qish mumkin:

Cho‘x munavvar etdi olamni
Munavvar qorimiz,
Ko‘rdimiz ravshanlig‘idin
Fe’limiz, atvorimiz.
Ibrat oling yoshlar deb
to‘kdi ko‘zdan yoshlar,
Nutqida tahrir etib,
bizlarni yo‘qu borimiz.
Sahnag‘a qo‘ydi “Padarkush”
fojia Behbudidin,
Bahra oldi o‘rusu arman,
O‘zbaku totorimiz.

(Tavallo. Ravnaqul islom. – T., 1916. 47-bet)

Har qanday yangilik xalq hayotiga osonlikcha singib ketmaganidek, teatr san’ati ham Turkiston hududlarida katta qarshilik va to‘siqlarga, hatto tahdidlarga duch keladi. Bunday to‘siqlardan eng kattasi mustamlakachi ma’murlar bo‘lib, dramatik asar bosmadan chiqib, to sahna yuzini ko‘rgunga qadar senzuraning ming chig‘irig‘idan o‘tishi kerak edi. Bu jarayonda har bir so‘z va jumlaga alohida e’tibor qaratilar edi. Nogahon, odamlarning ongini uyg‘otib yuborishi yoki ularni harakatga undovchi o‘rinlar asardan olib tashalanardi.

Ikkinchidan, “qadimchi” va “jadidlar” o‘rtasidagi nizo teatr munosabatlari bilan yanada keskin tus oldi. Taniqli jadidshunos olim, professor Shuhrat Rizaev o‘zining “Jadid dramasi” (Toshkent: “Sharq”, 1997) kitobida ushbu holatga e’tibor qaratib, davrning eng ko‘zga ko‘ringan ziyolilaridan biri, chuqur zamonaviy va diniy bilimga ega bo‘lgan ulug‘ zot Saidahmad Vasliy bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan katta munozaraga alohida to‘xtaladi. Ma’lumki, Vasliyni “qadimchi” yoki “mutaassib ulamo” deyish qiyin. Chunki, asrimiz boshlarida hech bir zot madrasalar, maktablar islohoti haqida uningchalik ilg‘or fikrlarni aytmagan edi. Hattoki, Hamza Hakimzoda Niyoziy ham Vasliyni “Taraqqiyot gulshanida millat

andalibi” deb bejiz atamagan edi. Darhaqiqat, XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikr taraqqiyotida Saidahmad Vasliyning alohida o‘rni bor. Uning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida e’lon qilingan “Shariati islomiya” maqolasiga nisbatan ilmiy asosli fikrni faqat Mahmudxo‘ja Behbudiygina aytishi mumkin edi. Prof. Sh.Rizaev ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, “Xalq peshanasiga yuzlab yillarda bitilgan Behbudiy kabi buyuk zotlargina” endi dunyo yuzini ko‘rayotgan milliy dramatrugiya, “ibodatxona”, “ulug‘lar maktabi” – teatr taraqqiyoti uchun o‘zlarini ham fido qilishga tayyor turdilar.

O‘rni kelganida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z millati yo‘lida amalga oshirgan boshqa ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini ham chor hukumatining bunga nisbatan ko‘rsatgan qarshiliklarini eslab o‘tish joizdir. 1906-yil 6-sentabrda Munavvarqori Abdurashidxonov va Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligidagi bir guruh jadidlar “Xurshid” gazetasini siqara boshlaydilar. Gazetaning 10 soni dunyo yuzini ko‘rganidan keyin u hukumat tomonidan yopiladi. 1913-yilning aprel oyida chiqa boshlagan “Samarqand” gazetasiga Mahmudxo‘ja Behbudiy mas’ul muharrir etib tayinlanadi. O‘zbek, fors va rus tillarida maqolalar e’lon qilingan bu gazeta sahifalarida Mirzohid Miroqilov, Akobir Mansur, Hoji Muyin Shukrullo kabi jadid ziyolilarining asarlari ham o‘rin egallagan edi. Olti yuzga yaqin nusxada tarqalayotgan bu gazeta ham 45 soni chiqqanidan keyin yopiladi. 1913-yil 20-avgustdan e’tiboran esa Behbudiy o‘zining “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvarqori Abdurashitxonov, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o‘rin egallagan bo‘lib, “Millat, islomiyai saodat!” shiorini bayroq qilib ko‘targan jurnal 136 soni e’lon qilinganidan keyin 1915- yilning 15-iyunida yopiladi.

Yoki 1916-yil voqealarini eslaylik. Shu yilning fevral oyida Turkistondagi rus axborot vositalari, shu jumladan “Turkestanskie vedomosti” nashri O‘rta Osiyo hududlarida safarbarlik e’lon qilish haqidagi chor hukumatining qarori borligini ma’lum qiladi. Haqiqatan ham, 1916-yilning 25-iyunida Nikolay II jahon urushi frontlari ortida xizmat qilish uchun Turkistondan ikki yuz ellik ming kishi jalb

qilinishi haqidagi farmonga imzo chekadi. “Turkestanskie vedomosti”da bildrilgan xabardan keyin, 1916-yilning may oyida bir guruh jadid ziyolilari Behbudiyning Samarqanddagi uyida yashirincha to‘planadilar. Ular ichida Munavvar qori, Pahlavon Niyoz, Usmon Xo‘ja, Qori Komil va Obdjon Mahmud kabi siymolar bor edi. Yig‘ilishdan asosiy maqsad, Turkistonda harbiy safarbarlik e’lonqilinganidan keyin xalqni isyonga da’vat etish va shu yo‘l bilan istiqlolni qo‘lga kiritish edi. Buning uchun qozoqlarning “Alash O‘rda” firqasi bilan hamjihatlikda faoliyat olib borishga qaror qilinadi.

Mashhur sharqshunos olim Zaki Validiy To‘g‘on o‘zining “Bugungi Turkeli (Turkiston) va yaqin tarixi” kitobida 1917-yil aprel oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Turkiston musulmonlarining birinchi Kongressi” haqida shunday ma’lumot beradi: “Kongressda ziyolilarning bir qismi (bilxassa Cho‘qaev va Shaxinahmedov) Qozondan kelgan vakillar (Orenburgda chiqayotgan “Vaqit” gazetasi muharriri Kabir Bekir va hukumat a’zosi sifatida Toshkentga kelgan Sadri Maqsudibeylarning) ta’siri ostida Turkistonning idora usuli masalasida federatsiyaviy qurilish fikriga muxolif bo‘ladilar: Munavvar qori va uning ba’zi do‘stlari ham taraddudda qoldilar. Faqat Behbudiy bilan men avtonomiya va federatsiya fikrini yoqlab, oxirigacha bu fikrimizda mustaqil qoldik... Shuni ham aytib o‘tmoqchimanki, anjumandagi eng go‘zal nutq Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’ruzasi bo‘ldi”[2]. Darhaqiqat, Behbudiyning millat va o‘lka kelajagi haqidagi siyosiy qarashlari uning asarlarida o‘z aksini topdi.

Bugungi kunda xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan, ayniqsa, o‘tgan asr boshlarida ijod qilgan, Vatanimiz istiqloli uchun kurashgan jadid mutafakkirlari asarlarini o‘rganish, ularni o‘zligini butun bo‘y-basti bilan xalqqa taqdim etish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir. Zero, jadid bobolarimiz nafaqat o‘z bilimlarini, kuch-g‘ayratlarini, hatto jonlarini ham fido qildilar.

[2] Тўғон Заки Валидий. Бугунги Туркэли (Туркистон) ва яқин тарихи. Истанбул, 1981 (2-нашр). – 357-бет.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA MAORIF ISLOHOTI MASALALARI

O‘zbek jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri, shubhasiz, Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand shahri yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida tavallud topgan. Lekin uning otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li asli Turkiston shahridan, Ahmad Yassaviy avlodlaridan. Behbudiyning onasi ham samarqandlik emas. Uning bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqandga ko‘chib kelgan.

Mahmudxo‘ja o‘n to‘qqiz yoshida otasidan yetim qolib, tog‘asi Muhammad Siddiqning qo‘lida tarbiya ko‘rgan. Arab tilini kichik tog‘asi Odildan o‘rganganligi sababli o‘n sakkiz yoshidan e’tiboran qozixonada mirzalik qila boshlagan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Mahmudxo‘ja dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida puxta tahsil ko‘rgan. Ayni paytda, xususiy mutolaa bilan shug‘ullanib, dunyoqarashining kengayishiga erishgan. Taxmin qilish mumkinki, shu yillarda u Ismoilbek Gaspiralining "Tarjimon" va boshqa taraqqiyparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi gazeta va jurnallar bilan tanishgan. Ehtimol, 1893- va 1897-yili Turkistonga kelib, Buxoro va Samarqandda bo‘lganida "Tarjimon" gazetasining muharriri bilan tanishish sharafiga muyassar bo‘lgan. Har holda, shu yillarda o‘qigan maqola va sayohatnomalar ta’sirida u 1899-1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga boradi.

Behbudiyning sakkiz oylik ana shu safari izsiz ketmadi. Bir tomondan jadid gazetalari, ikkinchi tomondan Kavkaz, Turkiya va Misrda ko‘rgan o‘quv muassasalari ta’sirida u 1903-yili Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajab amin qishloqlariga borib, o‘sha yerlik ma’rifat ahli bilan hamkorlikda usuli jadida maktablarini ochdi. So‘ngra bu maktablar uchun "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jug‘rofiyai umroniy" (1905), "Risolai jug‘rofiyai Rusiy" (1905), "Kitob at ul-atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908) va "Tarixi islom" (1909) singari kitoblarni yaratdi.

Behbudiy siyosiy-ijtimoiy qarashlarining shakllanishida sayohat, ayniqsa, katta rol o‘ynadi. U 1903-1904-yillarda Moskva va Peterburgda bo‘ldi, 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodga xizmat safari bilan bordi. 1914-yili esa ikkinchi marotaba arab mamlakatlariga sayohat qildi. Agar bu safarning bir qismi Nijniy Novgorodda 1906-yil 23-avgust kuni ochilgan Rossiya musulmonlari qurultoyi hamda milliy ishlarga doir majlis tufayli amalga oshgan, binobarin, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi bevosita ma’lum maqsad yo‘lida qilingan sayohatdir. Ularning har ikkisi ham Behbudiy ijtimoiy qarashlarining shakllanishida chuqur iz qoldirgani shubhasizdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Oyna" jurnalining 1914-1915-yillardagi bir qancha sonlarida bosilgan Behbudiyning "Sayohat xotiralari"ga nazar tashlash adib va uning dunyoqarashi to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qilishimizga imkon tug‘diradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yil 29-may kuni Samarqanddan yo‘lga chiqib, poezdda Bayramali – Marv – Ashxabod - Qizil Arvot - Krasnovodsk manzillari orqali Kaspiy dengiziga qadar boradi. So‘ng paroxodda Bokuga yo‘l olib, undan Turkiyaga va arab mamlakat-lariga o‘tadi. "Sayohat xotiralari" ana shu sakkiz oylik safarning o‘ziga xos kundaliklaridan iborat. Shuning uchun ham undan "Hind sayyohi bayonoti"da berilgan voqelik tahlilini kutish o‘rinli emas. Ilgari o‘zbek yozuvchi va shoirlarida o‘z hayot yo‘llarini, o‘zlari guvoh bo‘lgan voqealar va kishilar to‘g‘risidagi xotiralarini yozib qoldirish keng rasm bo‘lmagan. Shuning uchun Behbudiy xotiralari xuddi shu kemtikni to‘ldiruvchi dastlabki memuar asarlardan biri sifatida qimmatlidir. Binobarin, biz bu xotiralar orqali atoqli ma’rifatparvarning shaxsi, dunyoqarashi to‘g‘risidagina emas, balki fe’l-atvori, insoniy fazilatlari haqida ham tasavvur hosil qilamiz. Modomiki, shaxsiy qarashlar ijtimoiy dunyoqarashning bir qismi ekan, ularning ham ahamiyatli ekani o‘z-o‘zidan ayondir.

...7 iyun kuni kunduz soat o‘n ikkilarda paroxod dengizni ko‘pirtirib, harakatga kirdi. Qisqa bir fursatda shahar va yer g‘oyib bo‘lib, hammayoqni bepoyon suv saltanati egallab oldi. Paroxod

charxpalagining gumburi boshqa xayollarni boshdan uchirib yubordi. Shunday bir asnoda yolg‘iz o‘ylash mumkin bo‘lgan narsa suv, dengiz va paroxod edi. Behbudiy paroxodning 1 va 2 – sinflarida bor-yo‘g‘i musulmonlardan o‘zi bilan birga 3 kishi, qolgan musulmonlarning 3-sinfda, "faqru zaruratdan oyoq ostida va hojatxonalar hamsoyaligi"da o‘tirib va oqshom yotib ketishini ko‘z oldiga keltirdi. Bir tomondan, dengizning go‘zal manzarasi, zamonaviy paroxod, bu go‘zallik va qulaylikdan bahramand bo‘lib ketayotgan nosarolar, ikkinchi tomondan, g‘arib, aftodahol musulmonlar.

"Biz, musulmonlar, nima uchun Qur’on, san’at va g‘ayratdan uzoq ketdik?" - deb hayqiradi Behbudiy bu ziddiyatli manzarani ko‘rib. Musulmonlarning Qur’ondan uzoq ketganligining sababi bizga Fitrat orqali ma’lum. U Qur’ondagi so‘zlarni keltirib, Olloh yer yuzidagi hamma narsani inson uchun yaratganini aytgan. Agar "san’at"dan uzoqlashishni asl ma’nosida tushunsak, "g‘ayrat"dan uzoqlashish esa shunday kemalarni yarata bilmaslik, o‘z mehnati bilan inson aqlining ziynati va mahsuli bo‘lgan narsalarni bunyod eta bilmaslik va "hojatxonalar hamsoyaligi"da yotib turishdir.

Behbudiy shu ziddiyat haqida o‘ylar ekan, birinchi va ikkinchi sinfdan uning huzuriga ba’zi bir rus va yahudiylar kelib, u bilan suhbatlasha boshlaydi:

"Yahudiylardan biri derki, "Turkiston eski dunyoning Amriqosidur. Paxta, ma’dan, g‘alla, xulosa, har nimarsa bor. Turkiston oltundur. Agarda Rusiya hukumati mone bo‘lmasa, barcha mulkimni sotib, puliga Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so‘ngra olmos ko‘tarar edim. Ammo, nachora, Rusiya qonuni biz, yahudiylarni qisar…" (68-bet).

Yana o‘sha ziddiyatning teranlashuvi. Bir tomondan, boyagi g‘arib kishilar va ularning g‘arib vatani. Ikkinchi tomondan, bu g‘arib vatanning boyliklari va ularga ko‘z tikkan kimsalar…

Behbudiyning xayoliga birinchi bo‘lib shu fikr keladi: "Men ichimda dedim: "Tashakkur rus hukumatig‘akim, sizni qo‘ymaydur, valloh, siz, yahudiylar, biz, ahmaklarni darbadar va bevatan etarsiz…" (o‘sha bet). Lekin uning ayni paytda o‘z vatandoshlari, ular

turmushining ayanchliligi sabablari to‘g‘risida ham o‘ylamagan bo‘lishi mumkin emas.

Behbudiy uchun ushbu safarning eng yoqimli xotiralaridan biri, Istanbuldagi "Gulxona" parkida Ismoilbey Gaspirali bilan tasodifan uchrashib qolishi va u qo‘ngan "Shohin posha" otelida ustoz bilan yarim kechaga qadar bo‘lgan muloqotdir. Behbudiy, Ismoilbeyning iltimosiga ko‘ra, Turkistonning har bir yirik shaharidagi ma’rifiy va madaniy ahvol bilan tanishtiradi va, o‘z navbatida, o‘zi ham undan yangi ma’lumotlarni oladi. Ana shu suhbat tasviridan ma’lum bo‘lishicha, 1913-1914-yillarda "turkistonli qardoshlar" bolalarini "hukumat maktablari"ga bera boshlaganlar. Boshqacha aytganda, bolalar madrasalarga emas, balki hukumat ruxsati bilan ochilgan usuli jadida maktablariga borishi Gaspirali uchun quvonchli xabar edi. I.Gaspiralining Behbudiy keltirgan so‘zidan shu paytda Turkistonda 2 jarida va 1 majalla bo‘lganligi ham anglashiladiki, bu raqamlar Samarqand shahriga, xususan Behbudiyning o‘ziga taalluqli ekani shubhasizdir.

Gaspirali samarqandlik birodarining so‘zlarini tinglab, unga bunday maslahat beradi:"Albatta, mustandi (asosli – R.Sh.) taraqqiysiz hukumat maktablarinda ziyodaroq bola beringiz. Rus madaniyatidan qochmangiz". So‘ng bunday nido qiladi:" Oh, bilmiym Buxoro na o‘lur" (80-bet). Bu so‘zlardan uning kelajak uchun jadid maktablari ko‘plab yoshlarni tarbiyalab chiqarishi lozim, demoqchi bo‘lgani aniq va ravshandir.

Behbudiy safari davomida Shom (Damashq)da bo‘ladi va shu shahar bag‘ridagi Nafs shaharchasini ziyorat etib, unda 200 ming qadar xalq yashashi, shundan 170 mingi musulmon, qolganlari esa "rum, kato‘lik, prutistant, suryoniy va 6 mingga qadar yahudiy" ekani, ammo ularning barchasi arab tilida so‘zlashishini aytadi va davom etib yozadi:

"Shaharg‘a 300 qadar jome’ va ko‘b eski maktab va bir necha eski madrasalar bordur. Yangi maktablar bo‘lsa, shundan iboratdur: hukumatning mulki e’dodiy (tayyorlov maktabi – R.Sh.), mulki askariy (askariya maktabi – R.Sh.), mulki’yai rushdiyya (o‘rta maktab

– R.Sh.), sultoni turkiy, sultoni arabiy va bir necha ibtidoiya maktablari bordur. Hukumatning yana bir "maktabi sanoye’"i va ikki katta kutubxonasi bordur. Nafs shahrida bir necha matbaa va 2-3 jarida chiqar. Xalq va jamiyat tarafidan idora qilinaturgan arabiy va Islom nizomi maktablari ushbudur: vatan e’dodiyyasi, madrasat ut-taraqqiy rushdiyya, ittihodi rushdiyya, savq ut-tiyn rushdiyya (qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rta maktab – R.Sh.), madrasat ush-sharqiya rushdiyya, ta’lim ul-vataniya rushdiyya va yana bular uchun bir necha ibtidoiya maktablar, shaharda musulmon arablardin ajza’xona-aptik bor" (92-bet).

Behbudiyning xabar topishicha, Nafs shahrida bunday ma’rifat maskanlaridan tashqari, muz fabrikasi, tamaki, ipak, shisha va boshqa bir qancha fabrikalar bo‘lgan.

Ma’rifat shaydosi qaerga bormasin, o‘sha yerda birinchi navbatda o‘quv muassasalari, madaniyat korxonalari, maishiy xizmat tarmoqlari bilan qiziqdi. Chunonchi, u Bayrutdagi dorilfununlar Yevropa va Amerika sarmoyadorlari tomonidan idora etilsa-da, asosiy fanlarning arab tilida o‘qitilishi, fransuz, nemis yoxud ingliz tillarining esa faqat bir fan sifatidagina o‘rganilishini kuzatdi. Bu katta ma’rifat koshonasida olamning Turkiston va Buxorodan bo‘lak barcha yeridan, hattoki Yaponiyadan ham kelgan talabalarni ko‘rdi. Bu yerga kelib, o‘rnashib qolgan turkistonlik kishilar esa hojilarni "shikor etish"dan, ovlashdan boshqa narsani bilmasligi Behbudiyni g‘oyatda ranjitdi.

"Ajnabiylarning minglab talabalik har nav’ dorilfununi va necha yuzlab talabalik har nav’ maktabi, - deb yozadi u, - ellikdan ziyoda bo‘lub, muntazam rasadxona, kimyoxona, tashrix va jarrohi va hikmatxonalari bordur. Turklarning ham mulkiy rushdiyyasi, askariy rushdiyyasi, maktabi sultoniy, ikki qizlar rushdiyyasi, to‘rt ibtidoiy maktabi va o‘ttuz qadar musulmon maktablari bordur. Munda matbaa ham ko‘b bo‘lub, xeyle arabiy qadim va jadid, diniy, adabiy, fanniy va har nav’ kitoblar va yigirma qadar majalla va jaridalar nashr bo‘linadir" (102-bet).

Behbudiy tilga olgan bu muassasalar boshqa mamlakatlarning badavlat fuqarolari tomonidan bino etilgan bo‘lib, ularda, yuqorida aytganimizdek, qaysi mamlakatning fuqarosi o‘qishidan qat’iy nazar, dars va leksiyalar faqat arab tilida olib borilgan. Binobarin, arab mamlakatlarida Yevropa va Amerikaning ta’siri sezilib tursa-da, mamlakatning asl egasi arablar ekani har qadamda ayon bo‘lib turgan. Behbudiy garchand yangilik tarafdori, san’at va adabiyotning yangi turlariga xayrixoh shaxs bo‘lsa-da, arab shaharlari hayotiga kirib borgan kino, Behbudiy ifodasi bilan aytganda, sinematog‘raf va teatr bilan u qadar qiziqmagan. Hatto Shomda odamlar kamroq kirib tomosha qilsin uchun kinofilmlarning faqat tunggi soatlarda namoyish etilishi unga ma’qul tushgan. Aks holda, ulug‘ ayyom vaqtida kishilar xayoli boshqa yengil-yelpi narsalar bilan band bo‘lgan bo‘lardi, deb o‘ylagan u. Behbudiy kelajakda kinoning omma o‘rtasida ma’rifat va madaniyat tarqatuvchi san’at turlaridan biriga aylanishi mumkinligini, hatto, tasavvur ham etmagan. Umuman, jadidchilik harakatining boshqa birorta namoyandasida ham kino san’atiga bo‘lgan qiziqishni ko‘rmaymiz. Jadidlar uchun birinchi navbatda maktab ta’lim va tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan. Shuning uchun u Turkiyada ham, arab shaharlarida ham maktab va dorilfununlar ahvoli bilan ko‘proq qiziqqan. Turkistonda aholining maylini jadid maktablariga tortish qiyinchilik bilan kechayotgan bir paytda, Arabistonda turli-tuman maktablarning keng tarmoq otgani, maktab, kino, teatr singari yangiliklarga arab ulamolarining qarshilik ko‘rsatmagani Behbudiyda havas tuyg‘ularini uyg‘otgan. Ikki Sharq mamlakatining qiyosi Turkiston xalqlarining haddan ziyod orqada qolganlarini va jadidlar oldida turgan madaniy-oqartuv ishlarining nihoyatda ko‘pligini ko‘rsatdi. Behbudiy ana shu safar chog‘ida mahalliy xalqni maorif va madaniyatdan chetda ushlab turish Rusiya mustamlakachilik siyosatining bosh tamoyili ekanini tushundi.

Lekin bu hol unda ruslardan uzoqlashish lozim, degan fikrni uyg‘otmaydi. Ruslarning o‘zbek xalqiga - "sart"larga bo‘lgan munosabati qanchalik tahqirona bo‘lmasin, ulardan ko‘p narsani o‘rganish, nafaqat ma’rifat va madaniyat, balki ijtimoiy hayotning

boshqa sohalarida ham ularga yetib olish lozim edi. Bunday ulug‘ maqsadga erishish uchun ilm-fanni egallash, xorijiy xalqlar tilini bilish, yoshlarni ilg‘or mamlakatlarga o‘qishga yuborish lozim edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yil safaridan ana shunday fikr-xulosa bilan qaytdi. Gapning sirasini aytganda, Behbudiy ushbu safar chog‘ida, oddiy safardan farqli o‘laroq, boshqa maqsadlarni ham ko‘zlagan edi. "Oyna" jurnalining muharriri bo‘lmish Behbudiy uchun bu, avvalo, xizmat safaridir. U sakkiz oylik safari davomida sihat-salomatligini tiklash bilan bir qatorda ziyorat qilgan shahar va mamlakatlarning iqtisodi, geografiyasi, tarixi, arxitekturasi, maktab va maorifini o‘rgandi. Shuningdek, bu mamlakatlardagi siyosiy vaziyat va xalq hayoti bilan tanishdi; bank ishi, temir yo‘l, xotin-qizlar ahvoli kabi turli-tuman muhim masalalar e’tiborini tortdi. Mazkur safar Behbudiy dunyoqarashining chuqur falsafiy xulosalar bilan boyishiga sababchi bo‘ldi. "Bu safar uning bilimlari boyishi va gumanistik falsafasining rivojlanishida ulkan ahamiyatga molikdir. Arbobning falsafiy aql-idroki va tabiati Ona Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti haqidagi g‘oyalari va orzularining muayyanlashishiga yordam berdi",[3] deb yozganlarida D.Alimova va D.Rashidova mutlaqo haqdirlar.

Shu o‘rinda nemis olimasi Ingebor Baldaufning orifona kuzatuviga ham qo‘shilish joyiz. U ham ushbu masala to‘g‘risida so‘z yuritib, agar "Oyna" Parijdan to Yaponiyaga qadar bo‘lgan dunyoni O‘rta Osiyo burjuaziyasiga ko‘rsatgan bo‘lsa, "Sayohat xotiralari" Turkiston qarshisida musulmon Sharqini kashf etib berdi", deb yozgan.[4]

Behbudiyning ma’rifatparvarlik dasturi quyidagi masalalardan iborat:

1. Bolalarni musulmon, usuli jadid, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarda o‘qitish.

[3] Алимова Д., Рашидова Д. Махмудходжа Бехбудий и его исторические воззрения. - Т.: Маънавият, 1998. – С. 8.

[4] Балдауф Ингеборг. Маҳмудхўжа Беҳбудий Фаластинда // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати". - 1993, 21 май.

2. Eski madrasa, mozoru masjid va maktablarning "shikast rext"larini ta’mirlash.

3. Bolalarni Sharq mamlakatlari va Ichki Rusiyadagi dorilfunun va dorilsanoatlarga o‘qishga yuborish.

4. Bolalarni Rusiya hukumati maktablarida o‘qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruschaga o‘qitish va tarbiya qilish; bu ikki yil uchun to‘lanajak 600 so‘m miqdoridagi pulni to‘y-ma’rakalar uchun jamlangan mablag‘dan olish.

5. Bolalarni tarbiya qiladigan pansionlar ochish; bu tarbiyaxonalarning zamonaviy, milliy va diniy ruhda bo‘lishiga erishish.

6. Bu tarbiyaxonalarni ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun "Nashri maorif", yoxud "Jamiyati xayriya", yo "Jamiyati atfol" singari jamiyatlarni ochish.

7. Bu jamiyatlar yordamida va tegishli yuqori malakali o‘quv yurtlarida o‘qitish orqali huquqshunos, injener, muhandis singari mutaxassislar bilan birga "zamona maktabdori", millat homiysi va xodimi, "Davlat Dumasig‘a" deputat, milliy sanoatimizni isloh eta biluvchi, texnik, tijorat va bankalarda ishlay oladigan, shahar dumalarida, va umuman, Turkistonda ochilajak idoralarda ishlaydigan mutaxassislarni yetishtirishdir.

Behbudiyning bu ma’rifatparvarlik dasturi xalqni bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarish, uni milliy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, o‘zini-o‘zi eplash va boshqarish mumkin bo‘lgan bosqichga ko‘tarishni ko‘zda tutadi. Shubhasiz, bu dastur faqat ma’rifiy yuksalishnigina emas, ma’rifiy kamolot orqali hur va erkin zamonlarga erishishni ko‘zda tutadi va uning yo‘nalishi ham uzoqqa – hurriyat manzillariga qaratilgan edi.

BIRINCHI O‘ZBEK DRAMASI

XX asr boshlarida hayotdagi tub o‘zgarishlarga monand holda o‘zbek adabiyoti va san’atiga yangi janrlar muvaffaqiyatli ravishda kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolar haqida chuqur o‘ylaydigan, fikr yuritadigan yozuvchilar oldida mislsiz keng imkoniyatlar ochildi. Tashqi adabiy ta’sirlar mumtoz adabiy an’analarga tayanib kelgan mualliflar oldiga xarakter, shakl, uslub va tomoshabin (kitobxon) ga munosabat borasida yangi vazifalarni qo‘ya boshladi. Iste’dodli ijodorkorlarning samarali izlanishlarida novatorlik kurtaklari yuz ko‘rsatdi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi turkiy adabiyot aruz vazniga tayangan bo‘lsa, asr so‘ngida jahon adabiyotiga xos bo‘lgan yuksak adabiy shakllar, uslublar yangi o‘zbek adabiyotida ham tamoman o‘ziga xos milliy qiyofada ustuvor o‘rin tutmoqda.

Mana shu an’ana (tamoyil)lar doirasida ijod etgan mahalliy adiblar yangi o‘zbek adabiyoti karvonining yetakchilariga aylandilar. Jadid adabiyotining asoschilaridan bo‘lgan Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yaratdi. Ungacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilmagan edi. Bu Behbudiyning adabiyotga qo‘shgan eng katta hissasi bo‘ldi. Bundan tashqari u o‘z vatandoshlariga til jihatidan ham, shakl jihatidan ham uncha murakkab bo‘lmagan, yangi sharoit va muhitga mos keladigan nasr namunalarini yaratdi. Behbudiy davri uchun bu katta hodisa edi.

“Padarkush” dramasi yaratilishiga qadar Behbudiyni san’atkor sifatida ko‘rsatadigan yirik asarlari ko‘p emas edi. O‘sha vaqtgacha u ko‘proq ma’rifatparvar adib, islom tarixi, geografiyasi hamda ijtimoiy hayot muammolarini yoritgan faol jurnalist va olim sifatida tanilgandi.

Behbudiy 1911-yilda yozib tugatgan “Padarkush” dramasi rus senzurasidan o‘tgandan keyin, 1913-yilda nashr qilindi. Drama bir yil mobaynida Samarqandning katta «Народный дом» rus teatrida namoyish etildi. Mazkur teatr binosiga odam sig‘may ketgan edi.

Qizil Armiya tomonidan sho‘rolar boshqaruvi o‘rnatilgunga qadar Behbudiyning ushbu asari Markaziy Osiyo bo‘ylab juda ko‘p shaharlarda namoyish etildi. Drama qisqa fursatda birqancha yangi sahna asarlari yaratilishiga asos bo‘ldi. Shuningdek, u keyingi pyesalarning sahnalashtirilishi uchun bir tajriba namunasi bo‘lib ham xizmat qildi.

Zamonaviy drama adabiy janr sifatida yangi davr ma’rifatparvarlari nazdida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak edi. Ular ta’lim va madaniyatda yangi usul («usuli jadid») deb atalgan yetakchi guruh a’zolari edilar. Amalda jadidlar deb atalsa-da, aslida oddiy xalq bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilardilar. Jamiyatni isloh qilish zarurligini yaxshi bilgan Behbudiy siyosiy harakatlari samara bermagach, madaniyat va san’at orqali xalq ongini uyg‘otish, uni ma’rifatga olib borish mumkin deb hisoblagan edi.

Zamonaviy drama shu davrdagi barcha hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot an’analaridan ancha uzoq bo‘lsa-da, u boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o‘laroq ijro etish, ko‘rsatish xususiyatiga ko‘ra mahalliy aholi ko‘ngliga birdek yo‘l topa oldi. Mana shu muhim jihatiga ko‘ra yosh o‘zbek dramasi jamiyatda jiddiy islohotlar zarur bo‘lib turgan bir paytda muhim ma’rifiy tarbiya vazifasini bajardi.

Qoloq konservativ ruhoniylar va mahalliy rahbarlar qarshiligiga qaramasdan XX asr boshlarida bir guruh ijodkorlar tomonidan drama janri islohotlarni amalga oshirishdagi muhim vosita sifatida tanlanishi mantiqan to‘g‘ri edi. Lekin, nazarimda, Markaziy Osiyodagi ilk drama bo‘lgan “Padarkush” uchun bunday murakkab mavzuning tanlanishi u darajada to‘g‘ri yo‘l emasdi.

Avvallari ham xalq orasida ko‘rsatib kelingan ixcham milliy pyesalar, askiyalar, akrobatika kabi tomoshalar aslida hazil-mutoyibaga, yengil yumorga, majozga boy bo‘lib, odamlarni xursand qilish, ko‘nglini olishga qaratilgan edi. Bunday hazillar, askiyalar orqali ko‘pgina din peshvolari tanqid qilinardi. Yangi dramaturglar esa ruhoniylarga jiddiy munosabatda bo‘lar, e’tiqodli din arboblarini tanqid qilishdan qochardilar. Shunga qaramasdan qoloq kishilar

zamonaviy pyesalardagi tarbiyaviy-ma’rifiy ruh tufayli Behbudiy va uning hamfikrlariga qattiq qarshilik ko‘rsatishardi. Bunday munosabat nafaqat Turkistonda, balki O‘rta Sharq, shuningdek, Osiyo, Ozarbayjon, Arabiston, Turkiyada yaratilgan ilk sahna asarlariga va barcha ko‘rinishdagi komediyalarga nisbatan ham mavjud edi.

Behbudiyning o‘zi ixcham “milliy tragediya” deb ta’riflagan bu asar Turkistonda gunoh ishlarga yo‘l ochib, turli jinoyatlarga sababchi bo‘layotgan ayrim kishilar qismatiga ishora qiluvchi didaktik drama edi. O‘z xalqiga mansub farzandlarni o‘qitish, ma’rifatli qilish, jamiyatni yuksaltirishga har jihatdan qodir bo‘lishiga qaramay, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqidagi bashorat edi bu asar. Muallif asar g‘oyasini keskin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko‘rsatishdan ko‘ra dramaning ayrim qismlarida ta’lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini ko‘p ta’kidlaydi va turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatishga, ya’ni didaktik tasvirga ko‘p o‘rin beradi.

Dramaturg asosiy e’tiborini jinoyatga, diniy urf-odatlarga xilof bo‘lgan, biri ikkinchisiga bog‘liq qator gunohlarga qaratadi. Ularning noxush, yomon oqibatlarini badiiy adabiyot xulosalari orqali yo‘qotib bo‘lmasligiga diqqatni qaratadi.

«Padarkush»ning sahna asari sifatidagi o‘ziga xos fazilati shuki, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etganligi bilan belgilanadi. Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari «Padarkush» nomi bilan boshlandi va rivoj topdi.

“Padarkush” mavzusiga mos birinchi pardaning dastlabki daqiqalarida tomoshabinlar ota va o‘g‘il o‘rtasidagi juda qisqa va noxush munosabatga guvoh bo‘ladilar. Toshmurod shahardagi tunggi hayot uchun otasidan qo‘pollik bilan pul so‘raydi. Domulla (3-personaj) kirib kelgunga qadar o‘g‘il otasidan ruxsat oladi. Domulla esa boshini afsuslanib silkitib qo‘yadi.

Uning bosh qimirlatishida qandaydir jinoyat sodir bo‘lishi mumkinligiga ishora bor edi. Asar boshlanishiga bu epizod (ya’ni Boyning Toshmurodni kuzatishi, Domulla boshini afsuslanib qimirlatib qo‘yishi) xalqning ziyolilarga nisbatan cheksiz hurmatini ta’kidlash maqsadida keltirilgan. Bu hurmat har qanday boylik, amal – martabadan baland turar edi. Suhbatning kulminatsion nuqtasida Domulla Boyga o‘g‘lini o‘qitish orqali Olloh farzini bajarish zarurligini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng Boy xizmatkorga tezlik bilan eshikni qulflashni buyuradi, bu holatdan Domullaning ko‘ngli og‘rib chiqib ketadi.

Birinchi parda deyarli e’tiroflardan iborat bo‘lib, personajlar harakati kuzatilmaydi. Keyingi (ikkinchi) pardada esa aksincha harakat nisbatan ko‘p bo‘lib, so‘z (tasvir) kam. Keyingi manzara Boy o‘g‘li va uning sheriklari aysh-ishrat qilib o‘tirgan mayxonaga ko‘chadi. Ularning kayfi oshib qolgan, yosh o‘smirlar hammaga ma’lum bo‘lgan yengiltak ayol Liza haqida ko‘p gapiradilar. Mayxona egasi Liza kelishi uchun oldindan 15 rubl pul berish kerakligini eslatadi. Endi fojia syujeti mayxonada rivojlana boshlaydi. O‘smirlar so‘ralgan pulni yig‘ib berolmaydilar. Guruh boshlig‘i Davlat to‘lanadigan pulni Boyning seyfidan o‘g‘irlash mumkinligini ehtiyotkorlik bilan taklif qiladi.

Dramaturg asardagi deyarli hamma harakatlarni vaqt va makon jihatidan so‘nggi ikki pardaga ixcham joylashtiradi. Bu esa asarning ikkinchi yarmida Mulla va Ziyolining o‘ldirilgan o‘quvsiz, ma’rifatsiz Boy ustidan biroz hissiz, hech nimaga achinmay qilgan hukmi paytidagi daqiqalarga sezilarli harakat beradi. Ikkinchi va uchinchi pardadagi personajlar harakati shiddatli kechishiga qaramasdan muallif “Padarkush”ning asosiy qahramonlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda asarni yaxlit shaklga keltirishga muvofiq bo‘lgan. Uchinchi manzarada dramadagi asosiy xarakterlar ko‘rsatiladi.

Pyesaning asl nusxasida birinchi parda ikkinchi sahifadan sakkizinchi sahifagacha, ikkinchi parda to‘qqizinchi sahifadan o‘n ikkinchi sahifagacha, uchinchi parda to‘rtinchi manzara bilan birga 13-17-sahifaning yarmiga qadar davom etadi. Boyning mehmon-

xonasidan boshlangan harakatlarga sahnada 30-45 minutdan ko‘proq vaqt sarf etilishi mumkin. Keyin ikkinchi pardadagi mayxona tasvirlanadi va yana Behbudiy ta’riflagan so‘nggi to‘rtinchi manzara o‘sha mayxonaga ko‘chadi. Boyning yotoqdagi xonasi tafsiloti matnning yetti mayxonadagi voqealar (xilvatxona) olti yarim sahifani tashkil etadi. Jinoyat sodir bo‘lgan xonadagi tafsilot esa (Boyning yotoqxonasi) qisqa ikki sahifadan iborat bo‘lib, qotillik juda kam ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Ikki o‘g‘rining sahnadagi pantomimik (so‘zsiz) harakati deyarli yarim ko‘rinishda aks ettiriladi. Dramaning to‘rtinchi ko‘rinishida voqealar Boyning uyi va maishatxonada bo‘lib o‘tadi.

Agar Boyning uyi bilimsizlik, jaholat va qaysarlikning makoni bo‘lsa, maishatxona shayton malaylarining uyi sifatida ko‘rsatiladi.

Nodon farzandlar va qoloqlik qasri o‘rtasida yuz bergan jinoyatga daxldor va sababchi bo‘lgan kimsalarni sahnada kuzatayotgan har qanday oddiy tomoshabin ham drama fojia bilan tugashi muqarrar-ligini his qilib, bilib turadi. Birinchi pardada boy asosiy obraz sifatida tasvirlanadi, sahnadagi barcha munosabatlarda ishtirok etib, boshqa personajlarni o‘z atrofiga jamlatgan yagona qahramonga aylanadi. U ushbu pardadagi boshqa obrazlarga nisbatan ikki marta ko‘p gapiradi. Shunday bo‘lsa-da, Boy o‘z fikri va maslahati bilan ushbu parda oxirida o‘zning “uyqusini keltirgan” Ziyolidek muhim, asosiy siymo emas. Zamonaviy tanqidchilar esa Boyni dramadagi asosiy, markaziy qahramon deb hisoblaydilar.

Ikkinchi pardaning yetakchi, o‘ziga xos obrazi o‘spirin yigit Davlat. U guruhning g‘oya beruvchi rahbari: birinchi bo‘lib Liza ismini tilga oladi, uning uchun pul topish rejasini aytadi va unga boshchilik qiladi. Toshmurodni o‘z ota-onasiga nisbatan bosqinchilik qilishga ham Davlat da’vat etadi. Uchinchi pardaning birinchi ko‘rinishidagi ziddiyat asarda yaxshi tasvirlangan. Lekin Behbudiy to‘rtinchi ko‘rinishda Tangriqul va Toshmurod obrazlarini va barcha pantomimik harakatlarni, o‘n ikki ishtirokchidan sakkiztasini harakat hukmron bo‘lgan manzara – mayxonaga olib keladi. Ziyolining

uzundan-uzoq nutqi ogohlantirish sifatida allaqachon aytilgan bo‘lsa-da, u deyarli dramaning oxirida yana takrorlanadi.

Asar qisqa bo‘lishiga qaramasdan, hayotiy voqealar tasvirlangan sahna asari sifatida muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Bu paytda jadidchilik g‘oyasi butun Turkiston bo‘ylab keng targ‘ib qilinayotgan edi. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta’lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas’uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta’sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o‘z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar haqida ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to‘g‘ri yo‘ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta’sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to‘g‘ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko‘rib yig‘laydi, mamlakat yoshlarini o‘qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushuna boshlaydi.

Behbudiy bu predikament (asar tasviridagi mushkul holat)larni tasvirlash uchun Turkiston dramaturglari keyinchalik ko‘p murojaat etgan – tarixiy voqealarga yondashishdan ko‘ra, ko‘proq ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatga e’tiborsizlik oqibatlarini ko‘rsatishni ma’qul ko‘radi. Dramadagi hamma dialoglar Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida keng qo‘llaniladigan, barcha turkiy xalqlarga tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralarda beriladi.

Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili birinchi navbatda ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga bog‘liq ekanligini yaxshi anglab yetgan edilar. Shu tufayli “Padarkush” dramasida bu yetilgan, hayotiy muammo eng dolzarb masala sifatida kuyunchaklik bilan ko‘rsatiladi.

Domulla bilan Boy o‘rtasida ilm va boylik qudrati xususidagi murosasiz suhbat konflikt darajasiga ko‘tarilganda Boy “agar men o‘g‘limni o‘qitmasam nima bo‘ladi?” deb so‘ramaydi. Bu oldindan qabul qilingan xulosa edi. Boy o‘z farzandini o‘qitmagani uchun gunohkor, va u gunohkor sifatida o‘z jazosini oldi. Ozgina pul uchun qilingan bema’ni, ammo shafqatsiz qotillik o‘tkir kinoya bilan

qorishib ketadi. Chunki Boy oqibatsiz farzandini to‘g‘ri yo‘lga solib, o‘z hayotini saqlab qolishi mumkin edi. Lekin, ikkinchi tomondan, bunday yo‘l bilan ham johil farzanddan omon qolishga kafolat yo‘q edi. Toshmurod ma’rifatdan, ilmdan bebahra, xasis, ochko‘z maishatboz bo‘lib o‘sgan. Ulfatlari tungi maishat uchun ketadigan pulning katta qismini undan undirishga harakat qiladilar. Chunki u do‘stlari orasida ancha badavlat edi.

Shuningdek, Behbudiy ushbu dramada axloqsiz Lizaning bir kechalik xizmati uchun to‘lanadigan 15 rubl (katta miqdordagi pul) va Boyning uyidagi o‘qimishli, ziyoli xizmatkoriga bir oyda to‘lanadigan 7 rubl o‘rtasidagi keskin farqni qiyoslab ko‘rishni xalqqa havola etadi. Bunday jinoyatlarning asosiy sababchisi, har qanday g‘ofil, savodsiz insonni yomon yo‘lga boshlaydigan shaytoniy kuch – ichkilik, chilim, maishatbozlik. U yosh o‘spirinlarning kuchli istaklari, jilovsiz tuyg‘ularini uyg‘otishga ta’sir etadi va ularni fohisha ayol suhbatiga yetaklaydi. Shuning barobarida Behbudiy o‘smirlarning ichimlik, chilim chekish axloqsiz bazmlariga qo‘shilib jinoyat ko‘chasiga kirib qolishlariga sababchi bo‘lishini oldindan bashorat qiladi. Toshmurodning shaxsiy istaklari (hirsi)ni qondirish uchun o‘z uyiga o‘g‘irlikka tushishiga yuqoridagi sabablardan boshqa sabab yo‘q.

Behbudiyning adabiy qobiliyati qotillikning (ikkinchi) sababchisi va yetakchi salbiy obraz Liza (fohisha)ni axloqsiz ayol sifatida ko‘rsatishda ham yorqin namoyon bo‘lgan. Behbudiy bu obraz tasvirida Markaziy Osiyo adabiyoti an’analaridan yiroqroq bo‘lgan, G‘arb adabiyoti uslubiga ko‘proq murojaat qiladi. Muallif Liza orqali barcha e’tiqodli musulmonlarga yot bo‘lgan, ularda nafrat, jirkanch tuyg‘ularini uyg‘otadigan tipik obrazni kashf qildi, Turkistonga kirib kelayotgan «yevropacha» hayot illatlarini rad etadi. Ayni zamonda, Behbudiy Liza obrazi va jamiyatdagi yaramas odatlarni qoralash yo‘li bilan senzuradan qochishga muvaffaq bo‘ladi. Maishatxondagi Artun ham na turkistonlik, na arman millatiga xos bo‘lmagan ajnabiy, qiyofasiz inson sifatida ko‘rinadi.

Behbudiyning konsepsiyasi, shuningdek Markaziy Osiyo jamiyatidagi jadidona qarashlarga ko‘ra, Boyning xotinidan tashqari barcha personajlar negativ (salbiy) obrazlar qatoriga kiradi. Boyning xotini tashqi kuchlar tomonidan butun umri xazon qilingan vaziyatda, ham eridan, ham o‘g‘lidan judo bo‘lgan mushtipar ayol va hushini yo‘qotgan ona sifatida uchinchi pardaning birinchi manzarasida og‘ir ahvolda namoyon bo‘ladi. Boyvuchchaning kutilmagan ayanchli qismati, ayni shu damda o‘g‘li Toshmurod tomonidan ijaraga olingan to‘pponchadan havoga uzilgan o‘q asarga melodramalarga xos holatlarni olib kiradi. Melodrama tuyg‘u va hissiyotlarni bo‘rttirib ko‘rsatib, sabab va oqibatlarni to‘la aks ettirmaydigan janr deb hisoblasak, bu asar melodrama emas, unda melodramatik elementlar bor, ammo ular to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Agar bu asarda romantik his-tuyg‘ularni ifodalovchi harakatlar mavjud deb aytadigan bo‘lsak, odatda bunday asar fojia bilan emas, balki baxtiyorlik, xursandchilik bilan yakun topishi kerak edi.

Behbudiy asari uchun og‘ir dolzarb mavzu tanlagan. Asardagi ozgina hissiyot va g‘azab, nafratni hisobga olmaganda, unda hech qanday romantik yoki tuyg‘ularni ifodalovchi o‘rinlar yo‘q. Asarda ma’rifatdan uzoq bir oila qismati orqali mustamlaka Turkistonidagi ayanchli xayot, nursiz turmush va qoloq musulmonlarning bema’ni qarashlari bilan bog‘liq baxtsiz oqibatlar mahorat bilan ko‘rsatiladi. Behbudiy dramani «milliy fojia» deyishi bilan birga uni oddiygina qilib «qayg‘ulik voqea» deb ham atagan.

Dramadagi obrazlar aniq tizimga solingan, ya’ni tiplarga bo‘lingan. Jadidlardagi fatalistik (taqdirga ishonish bilan bog‘liq) kayfiyat Ziyoli – jadid va Domullaning fikrlari bilan uyg‘unligiga ko‘ra bitta guruhni tashkil qiladi. Shuningdek, dramada o‘g‘il va otaning hayot so‘qmoqlarida toyishi, og‘ir qismati, oqibatsiz farzandning badarg‘a qilinishiga bog‘liq voqealar vaqt va makon jihatidan uyg‘unlashtiriladi.

Boy o‘zining o‘tkinchi boyligi bilan ortiqcha g‘ururlanadi, har qanday ogohlantirishni mulohazasiz rad etadi, natijada bu xarakterning boshqa salbiy jihatlari ham namoyon bo‘ladi. Tunda

Boyning xonadonida paydo bo‘lgan ikki chaqirilmagan mehmon tomoshabinni taajjublantiradi. O‘g‘rilar boyga tashlanib, uzun pichoqni uning yumshoq biqiniga sanchayotgan pallada Boy himoyasiz qoladi. Shu holatda ham hech biror tomoshabin unga achinmaydi. Qismati o‘lim bilan tugagan barcha obrazlar fojiasining yagona asosi asriy qoloqlik, ma’rifatsizlik, diniy urf-odatlar, rasm-rusumlar, islomiy aqidalarni noto‘g‘ri talqin qilish singari illatlar bilan bog‘lanadi. Behbudiy mazkur drama orqali mana shunday asriy jaholat, fikr, dunyoqarashni o‘zgartirish bilan birga turkistonlik tomoshabinlar ko‘nglida afsus, nadomat tuyg‘ularini uyg‘otishni maqsad qilib olgan edi. «Padarkush» dramasi kichik dramatik lavha bo‘lishiga qaramasdan, u chuqur fojiaviy mazmun kasb etgan. Drama asosidagi eng muhim g‘oyaviy-ijtimoiy masalalar jadidlar va ularning maqsadlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Shuningdek, yangilik tarafdorlarida uchraydigan nuqsonlar ham jadid obrazi zimmasiga yuklatiladi. Behbudiy ularni foydasiz, xalqiga, yurtiga nafi tegmaydigan ilm egasiga aylanib qolayotganiga achinadi, quruq nasihatchilikni qoralaydi. Mana shu jihati bilan u realist adib sifatida namoyon bo‘ladi.

Dramadagi ba’zi personajlar uchun tanlangan ismlarda ham kuchli majoziy ma’nolar bor. Pichoq ko‘targan yovuz «Olloh quli» (Tangriqul) edi. Yana boshqa kim bo‘lishi mumkin? Qudratli Ollohning o‘zi ham ma’rifatsiz, johil, islom an’analari, shariat qonunlari va ruhoniylarning tanbehlarini, ziyolilarning pand-nasihatlarini pisand qilmaydigan, tahqirlaydigan musulmonlarga dahshatli jazo berib, ogohlantirayotgandek ko‘rinadi. Muallif Tangriqul (Ollohning quli) ismini bejiz tanlagan emas. Ziyoli – o‘zbeklarda «ilm beruvchi, aql-zakovatli, ma’lumotli» degan ma’noni berishi ma’lum. Boshqa obrazlarning ismlari ham o‘z xarakaterlariga mos tanlangan. Masalan, Boy, Domulla, politsiya pristavi va Boyvachcha. Artun, Liza ismlari ularning boshqa millatga mansub ekanligidan darak beradi. Toshmurod esa dramadagi dialoglarning birida, umumiy qilib Boyning o‘g‘li (Boyvachcha) sifatida

ko‘rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, dramadagi personajlarning o‘zini tutishi, xarakterlarida ham chuqur ramziy ma’nolar bor.

Pyesaning «Padarkush» deb nomlanishiga e’tiroz bildirish mumkin. Chunki, Behbudiyning tasvirlashicha, Boyning asosiy qotili uning o‘g‘li emas, balki Tangriqul, lekin ikkinchi jihatdan o‘g‘il bu jinoyatning asosiy ishtirokchisi ekanligiga hech kim shubxa qilmaydi. Demak, chuqurroq qaralganda, dramaning bunday nomlanishi asosli e’tiroz uyg‘otmaydi. Jinoyatchini mavhum bir kimsa sifatida ko‘rsatilishida ham muallifning o‘z maqsadi bor. U dramada faqat otaning fojiali taqdiri, misolida majoziy ravishda ota-ona, ona Vatan va Turkiston musulmonlarining qismatiga ham ishora qiladi. Agar jamiyat mustamlaka zanjiri ostida yashasa, jaholat, nodonlik avj olsa, buning uchun kim aybdor bo‘ladi? Muallif bu savolni tomoshabinlar hukmiga havola etadi.

Fikrni allegoriya, metafora va aniq jonli obrazlar vositasida ifodalash Turkiston adabiyotida azaldan mavjud bo‘lgan va XX asr boshlarida ham qo‘llanib kelinayotgan badiiy tasvir vosita (adabiy an’ana)lari hisoblanadi. U lirik she’rlarda yoki og‘zaki ijod namunalarida ko‘proq uchraydi. Dialoglar esa Markaziy Osiyo shoirlari tomonidan yaratilgan ko‘pgina she’riy munozaralarda ham uchrab turadi. Majoz Turkiston vatanparvarlari ko‘p murojaat qilgan badiiy tasvir vositasidir. Behbudiydan keyin bu majoz turi chor mustamlakasi yoki Sovet tuzumiga qarshi bir niqob sifatida foyda-lanilgan edi. Bundan tashqari yaratilgan fantastik, o‘tkir kinoyaga boy asarlar yoki adabiy sayohatlar ham Markaziy Osiyoda 1920 yillarga qadar mavjud hokimiyatni tanqid qilish uchun qalqon vazifasini bajargan.

Demak, jamiyatni isloh qilish bilan bog‘liq yangi g‘oyalarni bayon etishda drama janri yaxshi imkoniyatlar yaratib berdi. Chunki detektiv yoki mistik shakldagi adabiy janrlar, Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy maqsadini aniq namoyon qila olmas edi. Shu o‘rinda aytish kerakki, o‘sha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning «Padarakush»i kabi muvaffaqiyatli chiqmagan. Asar dialoglaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi. Bir

lahzada hamma narsasidan mahrum bo‘lgan, eri o‘ldirilgan ayol shunday baqirib, dod soladi. «He juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush!” Aynan shu daqiqada Domulla Boyning xotiniga tanbeh beradi: «Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi…”

Behbudiy ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini asarga singdirish uchun qadim turkistonliklar amal qilgan adabiy o‘yinlar, kinoya va qochiriqlar ko‘p, ma’noli so‘zlardan mahorat bilan foydalanadi. Behbudiy o‘z yurtdoshlarini chinakam qotil kim va u nima uchun bu jinoyatga qo‘l urgani haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi.

Ma’lum bo‘ladiki, «Padarkush»da aynan va ramziy ma’noda turli darajadagi o‘lim sabablari metafora sifatida ko‘rinadi. U oila boshlig‘i (fransuzcha Patrie – patriarx – birinchi qabila va urug‘ boshlig‘i)ning o‘limini aks ettirish bilan bevosita madaniy qoloqlik tufayli asriy Turkiston inqirozga uchraganini, endi bunday yashab bo‘lmasligini oldindan bashorat qiladi. Bir vaqtning o‘zida muallif jamiyatning baxtsizlik, qoloqlik tomon ketishini ko‘rsatish bilan birga, 1900 yillarda tuzilgan Markaziy Osiyo musulmonlari jamiyatining faol a’zolari parokanda bo‘lib ketganligiga ishora qiladi. O‘z davrining peshqadam adibi, birinchi dramaturgi yuqoridagi nozik mushohadalari orqali turkistonlik yoshlarga millat, jamiyat uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan muhim va jiddiy muammolarni o‘rtaga tashlaydi. Ma’lum guruhlarning o‘ziga ortiqcha bino qo‘yishi, takabburligi bo‘lajak fojialarga, qaltis oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkinligidan ogohlantiradi. Darhaqiqat, oradan ko‘p o‘tmay, jaholat qo‘ynida qolgan Turkiston parchalanib ketdi. Xurriyat istagan Markaziy Osiyo xalqlari chinakam Mustaqillikka erishishlari uchun yana ko‘p yillar bolshevizm zulmi ostida yashashga majbur bo‘ldilar.

Edvard Olvort,

Kolumbiya Universiteti professori, AQSh

“Jahon adabiyoti” jurnali, 2009-yil, 9-son.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY

PADARKUSH
yoxud o‘qimagan bolaning holi

(Turkiston maishatidan olingan ibratnoma)

3 parda 4 manzarali, milliy birinchi fojia

Qatnashuvchilar:

Boy - 50 yashar.

Toshmurod - boyning o‘g‘li, 15-17 yashar.

Domullo - yangi fikrlik bir mulla, 30—40 yashar.

Ziyoli-(ovro‘po libosida), o‘ruscha o‘qug‘on,millatchi musulmon.

Xayrullo - boyning mirza va mahrami, 18—20 yashar.

Tangriqul - boyning qotili.

Davlat ila Nor (bo‘z bolalar) - kissalariga 4 so‘m qadar mayda kerak.

Liza - rus xotini, qabiha shaklinda.

Artun - arman mayxonachi.

Pristuf - 2 politseyskiy, 2 qorovul, boyning 3 nafar erkak hamsoyasi.

Boybuchcha - boyning xotuni, 35-40 yashar.

Kerak nimarsalar:

Bir la’li shiravor, non, dasturxon, choynak, piyola, chilim.

Mehmonxonaga keraklik gilam, ko‘rpa, yostiq.

Boyni(ng) yotoq asbobi va karavot.

Bir kaltak.

O‘n shisha suv va kivas.

Besh-olti istakon.

Bir sanduq.

Bir hamyon ichida pulg‘a o‘xshag‘an nimarsa.

Bir katta pichoq.

Bir tapponcha.

Sanduqni ochaturg‘on temur asbob.

Mukammal pristuf libosi.

2 politseyskiy mukammal libosi.

2 qorovul kaltagi.

1 hushtak.

1 shohsaqa.

1 kanob.

1 qo‘l kishani.

Birinchi parda

Boy mehmonxonada o‘tirar, Xayrullo ila domulla kirar:

- Assalomu alaykum.

BOY. Vaalaykum assalom, marhamat qilsinlar (turib muloqot qilub, domullaga joy ko‘rsatib, o‘ltirur).

DOMULLA. Boy davlatini Ollohi taolo mundan ham ziyoda qilg‘ay (fotiha qilur).

BOY. Nafas(lari)i muborak, inshoolloh, durlari qabuldir.

DOMULLA. Balli, jum’a oqshomi duoni qabul vaqtidir.

BOY. Xush keldilar, taqsir.

DOMULLA. Salomat, salomat (qo‘lini ko‘ksiga qilib).

BOY. Xayrullo! Choy va la’li keltur.

XAYRULLO. Xo‘sh! (Choy va la’li keltirar, choy suzar, alar tanavvul aylar, Toshmurod kirar, salomsiz, beadabona).

TOSHMUROD. Ota, tomoshag‘a boraman, pul bering.

BOY. O‘g‘lim, kim ila borasan?

TOSHMUROD. Tursun akam ila.

BOY (kissasidan pul berib). Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar.

TOSHMUROD. Xayr, xayr, hov ko‘p gapura(r)siz-da (chiqib ketar. Domulla boy va Toshmurodg‘a badbinona boqib, boshini solar).

BOY. So‘zlashib o‘lturing, taqsir.

DOMULLA. Xo‘b, xo‘b, boyvachcha katta bo‘lubdur, Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o‘qiydur, yoinki eski maktabga?

BOY. Ikkisiga ham bormaydur.

DOMULLA. O‘z hovlingizda o‘qutaturg‘onsiz?

BOY. Yo‘q, yo‘q. Men o‘g‘lumni o‘qutmoqg‘a o‘ylaganim yo‘q.

DOMULLA. Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysuz? Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

BOY. Mani xayolimg‘a dunyoning sababi, izzati — boylik. Oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur. Chunonchi, biz ko‘ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko‘paydi. Katta boylar chilen bo‘lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg‘onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so‘ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo‘lur, bildingizmi?

DOMULLA. Bu so‘zlaringiz hozirgi zamonaga ma’qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko‘zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo‘lsa, barcha xalq izzat qilur, ya’ni mulloni ilmi izzat qilinadur.

BOY. Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto, musulmonlar nari tursun, o‘rus va armanlar-da izzat qilur.

DOMULLA. Izzatni nari qo‘yduk, agarda o‘g‘lingizni o‘qutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizga savob bo‘lur.

BOY. Mirzalik oson, mana, Xayrulloga oyinda yetti so‘m beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto, uyqum kelguncha xodimlik qilar, kitob ham o‘qub berar.

DOMULLA. Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmoq, albatta, sizg‘a lozimdir.

BOY. Shariat ilmini o‘qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar.

DOMULLA. Zarurati diniyaga ne dersiz?

BOY. Men o‘zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zim o‘rgaturman.

DOMULLA. Xat va savodga ne dersiz? Holbuki, savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur.

BOY. Bu fikringiz g‘alat, chunki mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

DOMULLA. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkarmoq uchun (ham) ilm kerak. Ko‘ramizki, yigirma-o‘ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a o‘tdi, muni sababi bizlarning o‘qumag‘onimizdur. O‘qumagan boyvachchalarni ko‘ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo‘lur, binobarin, o‘g‘lungizni o‘qutmoqni sizga taklif qilurman.

BOY. Ay, domullo! Siz manga tahqiqchimi? O‘g‘ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O‘quganni biri siz, yemoqg‘a noningiz yo‘q, bu holingiz ila manga nasihat qilursiz. Xayrullo! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi (Xayrullo la’li va asboblarni jamlab, muntazir turar).

DOMULLA (odamlarga qarab). O‘qumoq va mulla bo‘lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz, o‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! (Boyga qarab). Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz (domulla nos chekar).

BOY. Ay, domullo! Manga nasihatchi keragi yo‘q, bezor qildingiz, (odamlarga qarab) ishimdan, uyqumdan bu odam mani qoldirdi. Xayrullo, mehmonxonani qulfla (domulla arazlab chiqib ketar, boyni dimog‘i kuyib o‘lturar. Ziyoli musulmon kirar, palto va asosini mixga qo‘yar, boy ola-ola qarar, xushlamas).

ZIYOLI. Assalomu alaykum.

BOY (karaxtlik ila). Vaalaykum assalom, Xayrullo, kursi keltur. Bu kishi yerga o‘lturolmaydur (kelturar, ziyoli o‘lturub, papirus chekar).

ZIYOLI. Janob boy, sizni kayfsiz ko‘raman, mumkinmi sababini bilsam?

BOY. Bir mullo kelib edi, o‘g‘lingni o‘qutmaysan deb juda jonimni oldi, quvlagandek qilib zo‘rg‘a qutuldim, faqat mushtlashmadik.

ZIYOLI. Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish (odamlarga qarab), bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturg‘on mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domullani topib, ziyorat qilmoq kerak. Boy afandi, sizga malol kelmasun, ushbu to‘g‘ridan men ham sizga qachonlardir bir necha so‘z aytmoqchi edim. Va ammo soati ushbu daqiqaga mavquf ekan, endi sizdan iltimos qilamanki, bir necha daqiqa menga quloq bersangizki, ilm nafi to‘g‘risida so‘zlayin.

BOY (ola-ola qarab). Endi bildim, siz ham o‘g‘lungni o‘qut deb mani qisar ekansiz (odamlarga qarab), bugun chap yonim ila turganman, o‘ylamagan ishlar oldimdan chiqar, mazmuni — qordan qutulib, yomg‘urga uchraymiz. Xayrullo! Chilim keltur! (Tarafayn sukut, chilim kelar. Boy chekar, yo‘talar).

BOY. Xayrullo!

XAYRULLO. Labbay, taqsir!

BOY. Joyimni tashla, uyqum keldi (homuza tortar), ertaga ish ko‘p, vaqtlik yotmoq kerak (yana homuza).

XAYRULLO. Xo‘sh, hozir.

ZIYOLI (jiddiyat ila). Boy afandi! Men sizga dedimki, millatga keraklik ilmlar to‘g‘risida so‘zlamoqchiman, ammo siz meni(ng) so‘zimii eshitmoqg‘a xohlamayturg‘ong‘a o‘xshaysiz. Ikkinchi daf’a aytamanki, quloq bering va bu so‘zlar sizni(ng) va millatni(ng) naf’idur.

BOY. So‘zingizni jabr va zo‘r ila eshittirasizmi? Va yo meni azob bermakkami keldingiz?

ZIYOLI. Yo‘q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsining ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to‘g‘risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o‘qutmoqg‘a sa’y qilsalar.

BOY (xalqqa qarab). Koshki, domullo hikoyalari yetmasa edi. Xo‘b, modomiki qo‘ymaysiz, ertaroq so‘ylab tamom qiling, uyqum kelgan (homuza tortadi), odamlar bolasini o‘qut, deydur-a.

ZIYOLI. Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘lidan qetgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqg‘a sa’y qilmog‘imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorigacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm - hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniy. Olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg‘on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmiy, diniy va arabiy va bir oz ruscha o‘qub, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak, yoki komil mullo bo‘lsunlar (boy mudraydur). Angladingizmi boy?

BOY (boshini ko‘tarib). Ha, ha, aytabering, qulog‘im sizga.

ZIYOLI. Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o‘z millatimiz tilini bilaturg‘ondan so‘ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg‘onlaridan so‘ng, Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe’l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurulsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo‘lunsa, hattoki, shul tariqa o‘qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur. Hazrat payg‘ambarimiz: ilm Xitoyga ham bo‘lsa, talab qilingiz, demadilarmi? (Boy uyquda). Bul ishlar bo‘lmas, magar pul ila, sizdek katta boylarni himmati ila, chunonchi, Qafkaz, Orenburg va Qozon musulmonlarini boy va ahli g‘ayrati ilm yo‘liga ko‘p pullar sarf etarlar va kambag‘al

bolalarini o‘qutdirarlar (boyga qarab), albatta so‘zlarimga tushungansiz, janobi boy. Boy bova, hoy!

BOY (mudraydi, bosh ko‘tarib, esnab). Ha, ha…

ZIYOLI: Al-on biz Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha o‘qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy formasida yursa, masxara qiladurlar, agar izvoshchilik va yo qora mehnatkash bo‘lub, ovro‘palilarni eski libosini kiysa va yo o‘yinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki.

BOY (o‘lturish yeridan bir tarafga og‘ib yotib). Xur, xur, xurra, xurra, xurra…

ZIYOLI. Ilohi xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz Turkistonliklarga rahming kelsun!.. (ro‘moli ila ko‘z yoshini artib, chiqib ketar).

Parda inar

IKKINCHI PARDA

Pivaxona manzarasi: boyvachcha ila uch nafar o‘lturarlar.

TANGRIQUL. Bu oqshom, bilmayman, nima uchun ichkilik meni tishlamaydur: Namozi digardan beri bir dyujina shishani bo‘shatdim. Dayusni pivosi qulog‘imni qizitmadi. To‘ldir, ichaylik (Nor qadahlarni to‘ldirar).

HAMMASI. Toshmurod boyvachchani salomatligiga ura! Ura! Ura! (icharlar).

DAVLAT. Jo‘ralar. Manuvni ichdim, endi yodimga Lizajon tushdi. O, Lizajon!

HAMMASI. Oh, Lizajon, voh, Lizajon, qaydasan?

NOR. Zolim falak firoqig‘a kuydirdi mani; billohki, kelmasa, bo‘miydi.

DAVLAT. Bu dodu bedod ila hech nima bo‘lmas. Xo‘jayinni chaqirarmiz, otam o‘ldi bazmi qilarmiz.

NOR. Qo‘lingni ber, ey, nomard, topding (qo‘lini siqar). Bo‘ldi.

DAVLAT. Ey, to‘taburut Tangriqul. Daming chiqmaydur. Shuncha odam so‘zini o‘g‘irlab o‘lturasan. Erga navbat, sherga

navbat. Gap berib o‘ltur. Yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarni ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor. Jo‘ra! Bu mastlik rostlikdir. Qovog‘ingni ochib o‘ltur.

TANGRIQUL. Jo‘ralar. Sizlardan yashiraturg‘on so‘zimiz yo‘q. To‘g‘risini desam, manuni ichdim, qulog‘im qizig‘an, sen Liza deding, endi o‘zim shunda bo‘lsam-da, hushim Lizaga, to Lizani kelturmasang, mani gapirturolmaysan. Ammo gap kelturganingga, Davlat zo‘r!

DAVLAT. G‘am yema, muddaong Liza bo‘lsa, shul zamon yoningga ko‘rarsan, kelmasami? Boshini olarman.

NOR. Boyvachcha! Barishnaga tobingiz bormi?

TOSHMUROD. Mayli, odam yuboringlar, bazm qilsun.

TANGRIQUL. Gap, gap ila vaqtni o‘tkararsizlar, buyuraturg‘on bo‘lsanglar, buyuringlar, ertaroq kelsun, kayf qilayluk (Davlat qo‘ng‘iroq chalar. Artun armani mayxonachi kirar).

ARTUN. Nima deysan?

DAVLAT. Lizaga birovni yubor, kelsun.

ARTUN. Bunda?

DAVLAT. Ha, munda kelturmasdan mozorgami keturarding?

ARTUN. Izvinit surushdim-da.

DAVLAT. Bo‘l. Bo‘l. Birovni yubor.

ARTUN. Bah, ne vor, bilursin, Liza banga demishki, o‘n besh manatsiz banga kishi ko‘ndarma. Ha, o‘n besh manat-da va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi ko‘ndarayum. Liza o‘lmasa, boshqasini getirsin, kayfing nechik?

DAVLAT. Avval kelturub, so‘ngra pulni olsang bo‘lmasmi?

ARTUN. Davlat zo‘r! Ban sana demishimki, Liza aqcha olmayincha gelmaz, bana ne? Sen o‘zing bilirsanki, u gavur qizi, banim degil.

TANGRIQUL. Artun. Bir oz to‘xta, pul beramiz.

ARTUN. Bosh ustina, hoziram (chiqar. Jo‘ralari kayflari uchub, sukut etarlar).

DAVLAT. Suz, ichaylik! (Nor suzib quyar.)

TANGRIQUL. Pulni peshaki talab qilgani ishni belini sindurdi.

DAVLAT. Ish aksiga olsa, shunday bo‘lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring (hammasi chiqaradi, Davlat sanar, besh so‘m yetmas). Bu minan hech nima bo‘lmas. Bir ilojini topmoq kerak.

NOR. (tama’girlik ila). Ey, boyvachcha, bizlar-ku, kambag‘al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ana boybachchaning holi (qo‘li ila ko‘rsatur).

DAVLAT. Parvo qilma. Nor. Men bir nimarsa o‘yladim, agar boyvachcha ko‘nsa.

TANGRIQUL. Nima ekan? Nima?

DAVLAT. To‘xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boyvachchani(ng) salomatligiga ichaylik (Tangriqul suzar, icharlar boyvachchaning salomatligiga).

DAVLAT. Boybachcha. Bu kechadek chahorshanba sayri oyda-yilda bir bo‘lur va (yo) yo‘q, bir kecha ming kecha bo‘lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulni sizga qo‘sharman. Birga borib, otangizni sandug‘ini ko‘rsatursiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

TOSHMUROD. Tangriqul aka, borasizmi?

TANGRIQUL. Ulfatlar buyursa, u dunyoga boraman. U-ku sizning hovlingiz.

DAVLAT. Sen nima dersan, Nor?

NOR. Men ham ko‘pni biri, bor desang, borarman.

DAVLAT. Yo‘q, ikkov bas. Ko‘rganlar badgumon bo‘lmasin. Bukunni ertasi bor.

NOR. Boybachcha! Otangiz sandig‘ini joyini bilasizmi?

TOSHMUROD. Otamning yotaturg‘on uyinda.

DAVLAT. Yotaturg‘on uyni necha eshigi bor?

TOSHMUROD. Uch.

DAVLAT. Qaysi eshikdan kirasizlar?

TOSHMUROD. Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafidagi eshikni ocharman, so‘ngra Tangriqul akam kirar.

DAVLAT. Barakalla! Ilgari ham o‘g‘irlik qilganga o‘xshaysiz. Nor! To‘ldur, ichaylik! (Nor to‘ldurar, icharlar. Tangriqul va Tosh-murodga qarab) Endi boradurgansizlar?

TANGRIQUL. Albatta. Bormay nima bo‘lubdur (Davlat to‘pponchasini boyvachchaga berar. Nor etik sog‘idan pichoqni olib, Tangriqulga berar. Alar ehtiyot qilib turarlar).

DAVLAT. (ikkisiga qarab). Yo‘l bo‘lsin, botirlar?

TANGRIQUL. Olgani (Davlat Tangriqulni bir chetga olib, ishorat va xufiya ma’lumot va amr berar).

NOR. Omin, olloh… (Hammasi) Ollohu akbar. (Davlat fotiha berar).

Parda inar

UCHINCHI PARDA

Odat bo‘yicha boy yotar karavot ustiga uyquda, uyni bir tarafiga sanduq. Toshmurod bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf, u tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar. Tangriqul kirar, qo‘lida kalid va temir asbob, beliga pichoq, sandiq tarafiga borib, kalid solar, sandiq ochilmas. Toshmurodga qaraydur. Ishorat ila maslahat so‘raydur. Toshmurod sanduqni temir asbob ila sindirmoqg‘a amr berar. Tangriqul temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg‘onur. Boy cho‘chib turar, kaltakni olib, voy, voy deb Tangriqulga yugurar. Toshmurod kaltakni kelib ushlar. Tangriqul pichoq ila boyni qo‘ltig‘iga urar.

BOY (taraqlab yiqilar). Voh, jonim (jon uzar tipirlar, xirillar. Tangriqul sandiqdan tanga xaltasini ko‘tarar, pichoq va temir asbobni o‘ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur).

ODAMLAR. Nima gap, birov dod dedi? (Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, Tangriqul ila Toshmurodni ko‘rarlar).

TANGRIQUL. Toshmurod, ot! (Toshmurod havoga to‘pponcha otar va hozir kishilarga siloh ko‘rsatib qocharlar).

BOYVUCHCHA. Voy, zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod! (Chapak chalar, boy ustiga o‘zini tashlar, yuz va sochini yular). He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Qoshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-yey!

DOMULLA (kirar). Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va

tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo‘ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo‘ldingiz.

BOYVUCHCHA (to‘lg‘onib). Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!

DOMULLA. Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo‘ldi. Endy sizga, ochig‘i, sabrdan boshqa iloj yo‘qdir, onajon. Olloh sizga sabr bersun.

BOYVUCHCHA (kamoli betoqatlik ilan oh-vovaylo etar). Dod, voy bolam! Voy boyim! Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuborarlar! Voy, voy, voy u-u-u!..

TO‘RTINCHI MANZARA

(Ikkinchining ayni, mayxona)

Nor, Davlat ichib, ashula aytib o‘lturar. Tangriqul va Toshmurod pisib borib kirar, to‘pponcha va qonlik pichoqni bir chetga yashirar, hamyonni chiqarib, stol ustiga otar; o‘lturarlar.

TANGRIQUL. Chilim keltur-yey!

Artun chilim kelturur, chekarlar. Artun ketar. Tangriqul Davlatni bir tarafga olib, xufiya bo‘lgan ishlarii so‘ylar, ishoratlar qilar. Davlat «bechora» deb xufiya so‘ylab, ishorat ila xotirjam qiladir.

TANGRIQUL (hamyonni ochib ko‘rib, suyunar, Tangriqul va Toshmurodni yelkasiga qoqar). Barakalla, barakalla (Davlat zang chalar, Artun kirar).

ARTUN. Na buyurarsiz?

DAVLAT. Ma, pulni ol, tezlik ilan Lizann keltur!

ARTUN. Bosh ustina. Hozir kelur (pulni olar, icharlar. Liza kirar).

LIZA. Dobriy vechrim! (hammasi-la ko‘rishar).

DAVLAT. Isprizdim, ispasibo, ispasibo, prixal…

LIZA. Mersi (o‘lturar).

DAVLAT. Suz, Lizaning salomatligiga.

NOR (suzar, cho‘qishtirib). Lizaning salomatligiga ura, ura (icharlar).

Nor ashula o‘qur, tashqaridan hushtak sadosi kelar, oyoq tovushlari eshitilar. Majlisdagilar sarosima, hayron bo‘lar. Silohlik politseyskilar, pristuf, qorovullar bostirib kirarlar. Liza ochar.

Politsiya to‘rt nafarni ushlar, ba’zisi buyumlarini va har tarafni axtarur, qonlik pichoq va to‘pponchani topar. To‘pponchani pristufga topshirar. Iskab ko‘rar, o‘qini bo‘shatar.

Tangriqul va Toshmurod qochar. Qorovullar ushlar.

Toshmurod ho‘ngir-ho‘ngir yig‘lar, betoqat bo‘lur.

Pristuf ishorat qilur. Qo‘lkishanni keltirib, Tangriqul va Toshmurodga urarlar. Bashka ikkisining qo‘li bog‘lanur.

Pristuf gunohkor va qorovullarni saf qildirur.

ZIYOLI. (kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odamlarga qarab). Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, xun beg‘ayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandg‘a va qiyomatg‘a jahannamg‘a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ilalabad azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg‘a giriftor qilgan beilmlikdur. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukm-farmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur. Ollohu taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay.

PRISTUF (amirona). Hayda, turma, marsh (yo‘naladur).

Parda inar

Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар.
– Т.: Академнашр, 2018, 95-106 бетлар

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беҳбудий М. Танланган асарлар / Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. – Т.: Маънавият, 1999.

2. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Академнашр, 2018.

3. Boltaboev H. Qatag‘on qilingan ilm. –T.: Xazina, 1996.

4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. №1. – T.: Universitet, 1999.

5. Mo‘minov I. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – T., 1960.

6. Reforem Movements and Revolutions in Turkistan (Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar). 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001.

7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Ma’naviyat, 2002.

MUNDARIJA:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarori …….. 3

So‘zboshi o‘rnida ……..... 7

Begali Qosimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy …… 9

Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlari….. 26

Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy publitsistikasi…..... 36

Jadidchilik va teatr san’ati ……. 45

Mahmudxo‘ja Behbudiy va maorif islohoti masalalari ……. 56

Edvard Olvort. Birincho o‘zbek dramasi …….. 64

Padarkush yohud o‘qimagan bolaning holi ……... 75

Foydalanilgan adabiyotlar ……. 87

UO‘K: 821.512.133
KBK: 83.3 (5 Uzb)
Sh - 54

Rustam Sharipov. Behbudiy dahosi. – Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025. – 86 bet.

Mazkur kitob Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi va rahnamosi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, buyuk alloma tomonidan ilgari surilgan siyosiy, huquqiy va ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ushbu tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida olib borilgan ilmiy loyiha doirasida Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan amalga oshirildi va nashr etildi.

Mas’ul muharrir:

Durbek SAYFULLAYEV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti prorektori,
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Xayrulla HAMIDOV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Hilola SHARIPOVA
Toshkent davlat yuridik universitetining katta o‘qituvchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 6-son qarori
bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8696-4-8

© Rustam Sharipov, 2025.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.